

UMAROVA ZUXRA
ABDULLAYEVA FOTIMA



**KOMPOZITSIYA ASOSLARI
VA RANGSHUNOSLIK**


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON BADIIIY AKADEMIYASI
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**

**Z.S.Umarova
F.S.Abdullayeva**

“KOMPOZITSIYA ASOSLARI VA RANGSHUNOSLIK”

FANIDAN

O'QUV QO'LLANMA



**“MATRIX”
TOSHKENT – 2025**

UO·K: 75.017.4(075.8)

85.147ya73

U 47

Kompozitsiya asoslari va rangshunoslik: o'quv qo'llanma / Z.S. Umarova, F.S. Abdullayeva. – Toshkent: Matrix, 2025. – 132 b.

KBK 85.147ya73

“Kompozitsiya asoslari va rangshunoslik” nomli oquv qo'llanma Oliy ta'limning 60210400 - Dizayn (libos va gazlamalar) ta'lim yo'nalishi ixtisosligi 1-bosqich talabalari uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma “Kompozitsiya asoslari va rangshunoslik” fanining o'quv dasturi asosida yaratilgan bo'lib, unda kompozitsiya qonuniyatlari asosida, so'nggi mavsumlar moda tendensiyalariga mos zamonaviy libos shakllarini yaratish uchun dizayner mutaxassislarini yetishib chiqishida ahamiyatli bo'lgan - “Libosdagi siluet: siluet chiziqlari, konstruktiv chiziqlar, konstruktiv-dekorativ chiziqlar, dekorativ chiziqlarni o'rganish”, “Libos kompozitsiyasida simmetriya va asimmetriyani o'rganish”, “O'xshashlik, nyuans va kontrastni aks ettiruvchi libos eskizlarini chizish”, “Tasvirlashning turli texnik usullarini qo'llash; libos (yoki kostyum) kompozitsiyasini tuzishda rang va faktura” va yana kollaj, bosma, texnikasini qo'llab libos eskizlarini yaratish”, “O'xshash-kontrast ranglar uyg'unligidagi libos eskizlarini chizish” kabi mavzular atroflicha yoritilgan.

Tuzuvchi:

- | | |
|--------------------|--|
| Umarova Zuxra | – K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti |
| Sagdullayevna | “Libos dizayni” kafedrası katta o'qituvchisi |
| Abdullayeva Fotima | K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti |
| Sagdullayevna | “Libos dizayni” kafedrası o'qituvchisi s.f.f.d (Phd) |

Taqrizchilar:

- | | |
|----------------------|--|
| Rahmatullayeva Umida | – Toshkent To'qimachilik va yengil sanoat instituti, |
| Saidazimovna | “Moda va dizayn” kafedrası professori, f.f.n |
| Xodjayeva Umida | K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti |
| Muratovna | – “Libos dizayni” kafedrası dotsenti |

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 09-iyuldagi 258-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etildi.

ISBN 978-9910-8224-6-9

MUNDARIJA

	Kirish	4
1	Libosdagi siluet: siluet chiziqlari, konstruktiv chiziqlar, konstruktiv-dekorativ chiziqlar, dekorativ chiziqlarni o'rganish.	6
2	Libos kompozitsiyasida simmetriya va asimmetriyani o'rganish.	19
3	Libos kompozitsiyasida ritmik va metrik takrorlanishlarni o'rganish.	29
4	O'xshashlik, nyuans va kontrastni aks ettiruvchi libos eskizlarini chizish.	36
5	Libos kompozitsiyasini tuzishda oddiy proporsiya turlarini qo'llab eskizlar chizish.	42
6	Libos kompozitsiyasini tuzishda irratsional proporsiya turlarini qo'llab eskizlar chizish.	53
7	Tasvirlashning turli texnik usullarini qo'llash; libos (yoki kostyum) kompozitsiyasini tuzishda rang va faktura.	58
8	Tasvirlashning turli texnikalari – akvarelni qo'llab libos eskizlarini yaratish.	71
9	Tasvirlashning turli texnikalari – grafikani qo'llab libos eskizlarini yaratish.	76
10	Tasvirlashning turli texnikalari – bosma texnikasini qo'llab libos eskizlarini yaratish.	83
11	Tasvirlashning turli texnikalari – kollaj texnikasini qo'llab libos eskizlarini yaratish.	88
12	Monoxrom, axromatik ranglardagi libos eskizlarini chizish.	93
13	Kontrast ranglar uyg'unligidagi libos eskizlarini chizish.	104
14	O'xshash ranglar uyg'unligidagi libos eskizlarini chizish.	111
15	O'xshash-kontrast ranglar uyg'unligidagi libos eskizlarini chizish.	117
16	Glossariy.	123
17	O'quv qo'llanmada foydalanilgan fashion eskizlar mualliflari.	127
18	Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari.	128

KIRISH

O'zbekistonda moda sohasining zamonaviy dizayn talablari asosida shakllantirilgan yangi davri mustaqilligimizning ilk yillaridan boshlangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, mazkur davrlarda yurtimiz moda sohasi rivojiga keng imkoniyatlar ochildi. Bu davrda barcha sohalarida mamlakatimiz o'zining mustaqil siyosatini olib bora olish imkoniyatiga ega bo'lishi, turli jabhalarda jahon xalqlari bilan o'zaro siyosiy, iqtisodiy hamda ma'naviy aloqalarni yo'lga qo'yilishi jarayonlari xalqimiz ongidan unutilayozgan milliy merosimizni tiklash doirasida boshlangan davlat siyosati bilan hamohang holda kechganligini qayd etish lozim.

Tabiiyki, yuqorida ta'kidlab o'tilgan yutuqlar mustaqil yurtimiz modasining zamon talablariga mos holda qaytadan shakllantirilishi va yosh dizaynerlar ijodida asosiy tendentsiya sifatida zamonaviy uslub va uslubiy yo'nalishlarga xos kostyum shakllarining o'zbek milliy kostyum an'analari asosidagi loyihalarini yaratish hisoblanganligini qayd etish lozim¹.

So'nggi yillar davomida nafaqat sanoat sohaları rivojlangan davlatlar balki, bu borada endigina rivojlanish bosqichiga qadam qo'yayotgan davlatlarda ham dizayn sohaları jadal suratda rivojlanib borayotganini qayd etish joiz. Bu jarayonda jamiyatda dizayner mutaxassislariga bo'lgan talab ham sezilarli darajada oshib bormoqda. Industrial jamiyatdan axborot texnologiyalari asriga o'tish jarayonida tabiiyki, dizayn sohaları rivojlanish modeli keskin o'zgarishlarga yuz tutdi.

Ma'lumki, moda va dizayn olamida kompozitsiya va rangshunoslikni o'rganish asosiy o'rin tutadi. Libos dizaynida har bir elementning o'zaro uyg'unligi, shakl va ranglarning kombinatsiyasi kiyimning estetik qiyofasini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fanlar yordamida dizaynerlar libos yaratishda vizual muvozanatni saqlash, uslub va ekspressiyani ifodalash, ranglarning psixologik ta'sirini tushunish va ularni muvaffaqiyatli qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

"Kompozitsiya asoslari va rangshunoslik" o'quv kursi uchun tayyorlangan mazkur o'quv qo'llanma, yurtimizda asrlar mobaynida shakllangan libos yaratish an'analari davomiyligi ma'nosida, yangicha kompozitsion yechimga ega, hozirgi kun tendensiyalariga mos zamonaviy

¹ Abdullayeva F. Modalar dizayni aspektlarining ustuvor tamoyillari. San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: 2024.

liboslar shakllarini yaratishni maqsad qilgan dizaynerlar yosh avlodini mukammal bilimlar egallashlari uchun xizmat qiladi.

Dizayn ixtisosligi bo'yicha ta'lim tizimi ilk bor mamlakatimizda Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagi "O'zbekiston Badiiy Akademiyasi va uning tasarrufida Oliy va o'rta maxsus badiiy ta'lim tizimini tashkil etish to'g'risida"gi 131- sonli Qaroriga binoan amalga oshirildi. Va xuddi ana shu davrdan boshlab, mustaqillik sharofati bilan tashkil etilgan O'zbekiston Badiiy Akademiyasi o'zining Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi barcha tasviriy va amaliy sohalari ixtisosliklari qatorida dizayn yo'nalishlari bo'yicha ham qabul e'lon qila boshladi. Dizaynning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lgan liboslar dizayneri mutaxassisligi bo'yicha esa qabul 2001 yildan boshlab amalga oshirila boshlandi.

Ma'lumki, tasviriy san'at ta'limi asrlar mobaynida uzviylikka asoslangan jarayon hisoblanadi. Uning ilk bosqichi boshlang'ich badiiy ta'limdan boshlab oliy ta'limning bakalavr va magistratura bosqichiga qadar yetuk san'atkorni tarbiyalashdek muhim vazifani o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Bunda avvalo, zamonaviy liboslarni badiiy loyihalashda e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan dolzarb jarayonlarda bevosita o'zlarining libos kolleksiyalari bilan ishtirok etayotgan yosh dizaynerlarning libos loyihalarini yaratishda kompozitsiya qonuniyatlarini o'z o'rnida qo'llash malakalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu yo'nalish talablaridan kelib chiqib, zamon bilan hamnafas holda, milliy tafakkurdagi yangilanishlarga to'liq javob bera oladigan yoshlarimiz uchun yaratilayotgan zamonaviy liboslar shakl-shamoyilini yaratishda, asosiy e'tiborni liboslardagi konstruktiv va dekorativ elementlarni, rang qonuniyatlarini, inson qomatidagi kamchiliklarni libos silueti hamda illyuziyaga hos mato namunalari asosida ko'zga tashlanmaydigan holatdagi dizayn-yechimlarini qo'llash jihatlaridan kelib chiqib yondashishga qaratish zaruriyatini ham belgilab bermoqda. Zotan, liboslarni loyihalashning zamonaviy badiiy jarayonlarda namoyon bo'layotgan asosiy tamoyillari – libosga to'g'ri tanlangan mato fakturasi va rang yechimlari va libos shakllarining eng e'tiborli va ilg'or jihatlarini saqlagan holda – zamonaviy shakl va siluet uyg'unligini yaratishga bo'lgan yangicha yondoshuv xususiyatlaridan samarali foydalanilishiga erishish bugungi kunning eng ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

1-MAVZU. LIBOSDAGI SILUET: SILUET CHIZIQLARI, KONSTRUKTIV CHIZIQLAR, KONSTRUKTIV-DEKORATIV CHIZIQLAR, DEKORATIV CHIZIQLARNI O'RGANISH.

Reja

- 1. Libosdagi siluet xossalari.*
- 2. Libosda konstruktiv chiziqlar.*
- 3. Libosda konstruktiv- dekorativ chiziqlar.*
- 4. Libosda dekorativ chiziqlarni o'rganish.*


Kiyimning silueti kostyum va umuman har qanday kiyimning asosiy belgilovchi xususiyatidir. Siluet dizaynerlar va moda rassomlari uchun individual g'oyalarni ifodalashning eng muhim vositalaridan biri bo'lib, u moda tendensiyalarini ham belgilaydi. Kiyimning silueti ma'lum bir tarixiy davrni ko'rsatishi yoki "modaga xos" bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, siluet - tekislikdagi shaklning eng ifodali proyeksiyasi yoki proyeksiyalari hisoblanadi. Ko'pincha siluet kiyimning old ko'rinishini aks ettiradi. Agar shunday tasvir nosimmetrik shaklni aniq ifodalamasa, siluet kiyimning yon ko'rinishini aks ettirishi lozim. Bunday holat libos dizaynning yechimidagi aksenti ort bo'lagida bo'lganida yuz beradi.²

Libosdagi siluet. Odatda libos shakli ko'p hollarda turg'un – statik holatda o'rganiladi. Vaholanki, kostyum yoki libos – o'z holatini doimiy tarzda o'zgartirib turadigan jihatlari bilan farqlanadi. Shunday ekan, libosning shakli va silueti inson jussasi bilan bog'liq bo'lgan, uning qiyofasi, o'lchamlari hamda harakat holati tizimlari bilan hamoxanglikda hosil qilinadigan kompozitsiya vositalaridan biridir. Ko'pincha, ma'lum bir siluetni tavsiflashda majoziy va fazoviy o'xshashlikni ta'kidlaydigan turli xil harflar va ramziy belgilar qo'llaniladi. Masalan, A-shaklidagi, X-shaklidagi, T-shaklidagi, S-shaklidagi, V-shaklidagi va x.k.

Liboslarda siluet deb, uning hajmiy ifodasi inobatga olinmagan holatdagi yaxlit qiyofasi shakliga aytiladi. Kostyum siluetlarining 4 ta turi mavjud: 1.Uchburchakli siluet; 2.To'g'ri burchakli siluet; 3.Trapetsiya; 4.Oval. (1.1-rasm).

² G.K.Xasanbayeva, M.Sh.Shomansurova. "Maxsus kompozitsiya" Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007 y. – 167 b.






1.1– rasm. Kostyum siluetlarining 4 ta turi mavjud: 1.Uchburchakli siluet;

2.To'g'ri burchakli siluet; 3.Trapetsiya; 4.Oval.

Kostyum siluetlarining gavdaga nisbatan joylashishiga binoan:

- to'g'ri bichimli;
- qomatga yopishib turuvchi siluet
- belga qisman yopishgan;
- keng siluetlarda bo'lishi mumkin. (1.2-1.4-rasm).





1.2-1.4 – rasm. Kostyum siluetlarining gavdaga nisbatan joylashishiga doir misollar

Qomatga yopishib turuvchi siluet. Ushbu siluet asosida tayyorlangan kiyim-kechaklar qomatdagi asosiy aylanalar bo‘ylab nisbatan mahkam o‘mashganligi bilan ajralib turadi: bo‘ksa aylanasi, ko‘krak aylanasi, bel aylanasi. Ushbu siluet qomatning tabiiy konturlarini ochib beradi. Ushbu yechimni hosil qilishda bel chizig‘idagi vitachka yoki kamardan foydalaniladi. Bundan tashqari, ushbu siluetga ega mahsulotlarda ko‘pincha relyeflar mavjud bo‘ladi.

Qomatga nim yopishgan siluet. Ushbu siluetda kiyimning qomatga moslashish darajasi sezilarli darajada kamroq bo‘ladi. Shuningdek, mazkur siluet turi to‘g‘ri bichimli va belga yopishib turuvchi siluetlar orasidagi o‘ringa ega. Qomatga yopishib turuvchi siluetga qaraganda ko‘krak chizig‘ida yumshoqroq moslashishi va bel hamda, bo‘ksa aylanalarida nim yopishib turuvchi siluet hosil qilishi bilan xarakterlanadi, pastga qarab yengil kegayish hosil qiladi, deyarli sezilmaydi. Libosdagi bel chizig‘i har doim ham qomatdagi pozitsiyasiga mos kelmaydi - u tabiiy holatidan yuqorida yoki pastda joylashgan bo‘lishi mumkin. Umuman olganda, nim yopishgan siluet qomatning konturlarini ta’kidlaydi, lekin uni to‘liq ochib bermaydi.

To‘g‘ri bichimli siluet. Ushbu siluet o‘z nomi bilan qomatga yopishib turish darajasini ifodalab beradi, ya’ni unda qomatga yopishib turish darajasi yanada kamroq, bichimdagi pribavkalar nisbati aksincha, ko‘proq bo‘ladi. To‘g‘ri bichimli siluet dizayn yechimlari vertikal bo‘lib, asosan yelka-kamari yordamida mahkamlanadi.

Kengaytirilgan siluet (erkin). Ushbu turdagi siluet turli darajadagi hajmlarda taqdim etilishi mumkin – oʻrtacha hajmdan tortib to katta hajmli shakllargacha. Ushbu siluet asosida tayyorlangan mahsulotlar butun uzunligi boʻylab erkin yoki beldagi kamar bilan mahkamlangan boʻlishi mumkin.

Dizayner mutaxassislari koʻp hollarda avvalgi davrlarda yaratilgan liboslarga murojaat qilishadi, buning uchun esa libos tarixini bilish lozim. Avvalgi davrlar moda tendensiyalari haqida tasavvurga ega boʻlibgina, biz yangi buyum yarata olishimiz mumkin. Asosan, libos silueti har oʻn yillikda oʻzgarib turadi, bunga bir nechta tashqi faktorlar oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Tarixiy libos borasidagi bilimlar yaratilgan liboslarning chuqur maʼno egallashini taʼminlaydi, ijodiy chuqur oʻylanganlik darajasini oshiradi. (1.5-rasm)



1.5-rasm. 1635-1922 yillardagi kostyum siluetlari

Tasviriy sanʼatda chiziqlar turli rang va tUSDagi dogʻ (pyatno) konturlarini kesishmasidan hosil qilinadi. Shuningdek, chiziqlar mustaqil ravishda fon bilan kontrastda boʻlgan nuqtalar qatorlaridan ham tashkil topishi mumkin. Chiziqlar kompozitsiyada harakatni hosil qiladi. Masalan, diagonal chiziqlar harakat illyuziyasini hosil qilsa, gorizontaal chiziqlar tasvirni eniga kengayishini, vertikal chiziqlar esa boʻyiga uzayishini ifodalaydi.

Libosning, hamda uning ayrim qismlar va detallarining konturlariga *chiziqlar* deb qarash mumkin. Masalan, chiziqlarning boʻylama (vertikal)

yo'nalishi inson qomatini cho'ziqroq ko'rsatadi, diagonal yo'nalishga xos chiziqlar – dinamika, gorizontal yo'naltirilgan chiziqlar – kenglik hissini paydo qiladi, egri chiziqlar ko'rinish shakliga qarab o'zgaruvchanlik holatlarini ifodalaydi. (1.6-1.10-rasm).

Kiyim va yaxlit kostyum obrazidagi chiziqlar turli maqsadlar uchun xizmat qiladi. Ba'zi chiziqlar libos shaklini ifodalash va obraz uyg'unligi uchun javobgar bo'lsa, boshqalari aksent sifatida xizmat qiladi, ba'zilar esa barcha elementlarni birlashtirib, to'liq, uyg'un kombinatsiyani yaratadi. Libos yaratishda foydalaniladigan chiziqlarni qo'llashning barcha nuanslarni tushunib, chiziqlarni bir-biri bilan qanday qilib to'g'ri birlashtirish bo'yicha ko'nikmalar egallanganidan so'ng, dizaynerlar inson qomatining xususiyatlaridagi kamchiliklarni berkitish va aksincha yutuqli taraflarini yanada kengroq ko'rsatishga erisha oladilar.

Liboslarni loyihalash jarayonlarida chiziqlarni qo'llashga doir turli xil tasniflar mavjud. Kiyimdagi chiziqlar siluet, konstruktiv va dekorativ chiziqlarga bo'linishi mumkin.


Siluet chiziqlari. Siluet chiziqlari kiyimning tashqi konturini belgilaydi. Chiziqlarning to'g'ri joylashishi tananing nisbati qanday ko'rinishini aniqlaydi.





1.6-1.10– rasm. Chiziq, nuqta va dog' elementlaridan tashkil topgan liboslar namunasi.

Konstruktiv chiziqlar. Loyihalash jarayonlarida *konstruktiv va pardo*z chiziqlarning o'ziga xos ahamiyati mavjud. Libosdagi konstruktiv chiziqlar deb, umuman libos bichimining hamda ayrim qismlari (orqasi va oldi, yoqa qismi, yenglari)ning konturlari, shuningdek bichimni hosil qiluvchi tarkibiy qismi va detallarning ulangan qismlaridagi ko'zga ko'rinib turgan chiziqlar (vitachkalar, biriktiruvchi choklar) tushuniladi. (1.11-1.17-rasm)







1.11- 1.17– rasm. Konstruktiv chiziqlar qo‘llanilgan liboslar namunasi.

Dekorativ (pardoz) chiziqlar kiyimdagi turli bezak vositalarining to‘g‘ri yo‘nalishdagi chiziqlaridan iborat: pardoz baxyalar, bo‘rtma baxyalar, belbog‘, cho‘ntak qopqoqlari, belband, mag‘iz, bog‘ich, guljiyak, chiziqli kashta shular jumlasiga kiradi.

Chiziqlar libosda muhim ahamiyatga ega – ular hajmiy shaklning konstruktiv yuzasiga e‘tiborni kuchaytirib, dinamika hosil qiladi. (1.18-1.1.21-rasm).

Konstruktiv-dekorativ chiziqlar. Ular bir vaqtning o‘zida ikki xil funktsiyani birlashtiradi. Bir tomondan, qismlar bir-biriga bog‘lanishi ta‘minlab va shakl hosil qilsa, boshqa tomondan ular dekorativ tarzda ishlab

chiziqlar va kiyim-kechak uchun bezak bo'lib xizmat qiladi. Ushbu chiziqlar hajm yoki kontrast chok, hamda, tesma va boshqa bezak elementlari bilan ifodirilgan chiziqlarni ifodalaydi.

Chiziqlar va ularni vizual idrok etish. Har bir chiziq o'zining tashqi xususiyatlariga ega. Chiziqlar hajmi, yo'nalishi va joylashishi bilan farqlanadi. Har bir chiziq qanday vizual effekt hosil qilishini anglash va uni to'g'ri qo'llash orqali, talabalar nafaqat kerakli uslub va shaklni yaratishni o'rganadilar, balki qomatni ham to'g'ri korrektirovka qilish malakasini egallashlari mumkin. Bundan tashqari, chiziqlar shaxsiy xususiyatlarni, obrazning xarakterini aks ettiradi va kerakli taassurotni yaratishga yordam beradi.

To'g'ri chiziq. To'g'ri chiziqlar qat'iy siluet yaratadi, obrazni vizual ravishda cho'zirqoq ko'rinishga xizmat qiladi, kiyimdagi burchaklarni ta'kidlaydi va xususiyatlarni aniqroq qiladi. Chiziq qanchalik uzun bo'lsa va u duch keladigan to'siqlar qanchalik kam bo'lsa, qiyofa (obraz) shunchalik ixcham ko'rinadi. To'g'ri chiziqlarning ko'pligi libosni jiddiy qiyofa yaratishga omil bo'ladi va mazkur xususiyatni vizual ravishda yumshatish uchun obrazda oval yoki diagonal chiziqlarlardan foydalanish mumkin.

To'g'ri chiziqlar ishbilarmon ayollar liboslari uchun, shuningdek, smart-kajual liboslari uchun mos keladi. Shunday qilib, yelkaning aniq belgilangan, to'g'ri chizig'i insonlardagi ichki kuchni namoyish etishga xizmat qiladi, ishonch beradi, shu bilan birga, libosning tashqi konturidagi to'g'ri chiziqlar chegarani aniq belgilaydi, tananing u yoki bu sohasiga aksent berishga yordam beradi.

Oval chiziqlar. Oval chiziqlar vizual ravishda hajm qo'shadi, obrazni yumshoqroq ko'rinishiga yordam beradi, yengillik va qulaylik hissini beradi. Oval chiziqlar ustunlik qiladigan obraz qulay va erkin ko'rinadi. Ovallik hissini kuchaytirish uchun libosda yumshoq, zich to'qilgan matolar, hajmli elementlar, shuningdek, sidirg'a matolarni qo'llash mumkin. Aksincha, ushbu hissiyotni kamaytirish uchun tekis, to'g'ri chiziqlar va yengil assimetriyadan foydalanish mumkin.


Egri (egiluvchan) chiziqlar. Egri chiziqlar qomatga ifodalilik baxsh etadi, uning u yoki bu qismiga urg'u beradi, zarur shaklni hosil qiladi, nisbatlar mutanosibligiga xizmat qiladi. Ular qat'iy, yoki egiluvchan bo'lishi mumkin, egiluvchan chiziqlar yengil o'tishni ta'minlaydi.

Gorizontal chiziqlar qomatni vizual ravishda kengaytiradi, ammo bunga kamchilik sifatida qarash tog'ri emas. Sababi, ular nisbatlarni muvozanatga keltirish va qomatning ayrim qismlarini ifodali ko'rsatishga yordam beradi. Masalan, "nok" shakliga ega bo'lgan qomat turiga hos bo'lgan keng bo'ksa chizig'ini, yelka chizig'iga urg'u bergan holda muvozanatga keltirish mumkin. Bel chizig'i bo'ylab gorizontal chiziqlar (masalan, kamar) yuqori va pastki chiziq o'rtasida chegara hosil qilishga yordam beradi va shu bilan siluetni yanada ifodaliligiga hizmat qiladi. Bu jihatni to'g'ri ta'minlash uchun barcha gorizontal chiziqlar o'z joyida ekanligiga ishonch hosil qilish zarur.

Vertikal chiziqlar. Vertikal chiziqlar, aksincha, siluetni uzunligi bo'ylab cho'ziqroq ko'rinishiga xizmat qiladi. Ular qanchalik uzun bo'lsa, gavda shunchalik baland ko'rinadi. Biroq, vertikal chiziqlarni qo'llashda ba'zi nyuanslar mavjud.

Diagonal chiziqlar. Diagonal chiziqlar, o'z navbatida, diqqatni chalg'itish, tananing ayrim qismlarini kichikroq ko'rsatish yoki oshirish, shaklni o'zgartirish va urg'u (aksent) hosil qiladi. Ammo diagonal chiziqlar ham turli xil bo'lishi mumkin, ular turlicha joylashishi mumkin va shunga mos ravishda turli effektlar shakllantirishga yordam beradi.





1.18-1.21 – rasm. Pardoz chiziqlari qo‘llanilgan liboslar namunasi.

Liboslar dizayn loyihalarini yaratish jarayonlarida milliy liboslar shakli va silueti ham mutaxassislar uchun ijodiy manba sifatida o‘ziga xos o‘ringa ega. Xususan, “XX asrning so‘nggi o‘n yilligida globalizatsiyaning iqtisodiyot, madaniyat va ekologiyaga salbiy ta’sirlarini kamaytirishga qaratilgan antiglobalizatsion harakatlarning moda sohasiga integratsiyasi - “shaxsiylashtirish”, “madaniy va ijtimoiy trendlarga moslashuv” tamoyillarining ommalashuviga xizmat qildi. Natijada, trendxanter mutaxassislari hamda, dizaynerlar moda tendentsiyalari doirasida kreativ g‘oyalarni tadbiq etish jarayonida jahon xalqlarining kostyum yaratish an‘analarini qo‘llashga keng o‘rin bera boshladilar. Masalan, o‘zbek milliy liboslari asosidagi etno uslubi elementlarini zamonaviy liboslarda qo‘llash, yoki Sharq va G‘arb modasini uyg‘unlashtirish kabi tendentsiyalar dizaynerlar uchun ilhom manbaiga aylandi. F.Ataxanova tadqiqotida bu borada quyidagi mulohazalar keltirilgan, - Albatta, bu jarayonda moda o‘z ichiga milliy va hududiy madaniyat elementlarining o‘ziga xosligini olishni boshlaydi. Bu esa o‘z navbatida moda taqdim etayotgan namunalarni milliy

xususiyatlarga ega bo'la boshlashida namoyon bo'ladi. Jahon miqyosidagi modada so'nggi o'n yilliklarda g'ayrioddiy o'zgarishlar (metamorfozalar) ro'y berdi: agar avval turli madaniyatlar, turli etnoslarning an'anaviy libosi o'zini tanitish, qaysi millatga taalluqli ekanligini bildirish belgisi (markeri) sifatida namoyon etgan bo'lsa, bugungi kunda dunyo xalqlari etnomadaniyatlarining motivlarini o'z ichiga oluvchi "etno-uslub" tushunchasi bilan ifodalanadigan jahon modasi miqyosidagi tendentsiya haqida so'z yuritish mumkin. Moda va etnomadaniyat o'zaro bir-biriga kirib bormoqda hamda bir-birini to'ldirmoqda"³. Mazkur jarayon mamlakatimiz modasi amaliyotida kun sayin ahamiyatli o'rniga ega bo'lib, dizaynerlar ijodiy faoliyati, hamda mahalliy moda brendlari maxsulotlarida o'zining amaliy tasdig'ini topib kelayotganligi, o'quv topshiriqlari bajarish davomida ushbu tendensiya talablariga yanada izchil e'tibor qartaish zarurligini ko'rsatmoqda.

Savol va topshiriqlar

1. Libosdagi siluet xossalari nima?
2. Libosdagi siluet ko'rinishlarini xaqida so'zlab bering.
3. Libosdagi siluet chiziqlari qanday aniqlanadi?
4. Libosda konstruktiv chiziqlar xaqida so'zlab bering.
5. Konstruktiv chiziqlar, konstruktiv-dekorativ chiziqlar, dekorativ chiziqlarning farqini eskizlar orqali tushuntirib bering.
6. Libosda konstruktiv-dekorativ chiziqlar xaqida so'zlab bering.
7. Libosdagi siluet mavzusiga mos libos eskizlarini A3 o'lchamda oq-qora grafikada ifodalang.
8. Libosdagi konstruktiv, va konstruktiv-dekorativ chiziqlar mavzusiga mos libos eskizlarini oq-qora grafikada ifodalang.


³Abdullayeva F. Modalar dizayni aspektlarining ustuvor tamoyillari. San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: 2024.


2-MAVZU: LIBOS KOMPOZITSIYASIDA SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYANI O'RGANISH.

Reja

1. *Libosdagi simmetriya xossalari.*
2. *Libosdagi assimetriya xossalari.*
3. *Klassik simmetriya.*
4. *Afin simmetriyasi.*
5. *Egri chiziqli simmetriya.*


Simmetriya kompozitsiyaning yorqin va ko'zga tashlanuvchi xususiyatlaridan bo'lib, u shakl hosil qilishdagi asosiy vositalardan hisoblanadi. Simmetrik shakllar deb, bir – biriga aynan o'xshash tarkibiy qismlarning bir tekislikdagi joylashuviga aytiladi. Kompozitsiyada simmetriyaning - oynadagi singari, markaziy, tekis o'q atrofidagi kabi ko'rinishlari mavjud. Liboslarni loyihalashda simmetriyaning o'ziga xos tomonlaridan yana biri, bu - simmetrik shakllar yaratish jarayonlarida nosimmetriyaning (asimmetriya) namoyon bo'lishidir. Nosimmetrik kompozitsiya asosan liboslarda dinamik xususiyatlarni shakllantirishda qo'llaniladi. Simmetriya va nosimmetriyadan o'z o'rnida foydalanish orqali dizayner bir - birini takrorlamaydigan libos shakllarini hosil qilishga erishadi. (2.1-2.6-rasm).





2.1-2.6– rasm. Simmetriya qonuniyati qoʻllanilgan liboslar fashion illyustratsiyasi

Libos kompozitsiyasida simmetriya tushunchasi shaklning bo'ylama yo'nalishiga nisbatan olib qaralganda, uning o'ng va chap tomonlari tengligini tashkil etib, barcha jismlar va jussalar qatori inson tanasi va o'z navbatida liboslarda ularning bir xilda ikki qismga bo'linishi xususiyatini anglatadi. Simmetriya kompozitsion asarning eng yorqin va ko'zga tashlanib turadigan xususiyatlaridan biri. Bundan ma'lum bo'ladiki, simmetriya oddiy bir takrorlanish emas balki o'ziga xos go'zallik qoidasidir. (2.7- rasm).



2.7– rasm. Tekislikdagi va radial simmetriya aks etgan namunalar.

Asimmetriya (nosimmetriya) esa, simmetriyaga qarama-qarshi tushuncha bo'lib, tashkil etilgan ikki qism tengligiga zid ko'rinishlarni ifodalaydi. (2.8-2.13-rasm)





2.8-2.13– rasm. Assimetriya qonuniyati aks etgan liboslar fashion illyustrtsiyasi

Ma'lumki, libos shakli bu – o'ng va chap tomonlarning muallaq holatdagi ko'rinishi emas, balki aniq bir yo'nalishga yo'naltirilgan bo'laklarning fazoviy joylashuvini anglatadi. Shakl qismlarining o'xshashlik sifatleri vositasida joylashuvi simmetriyani, aksincha ushbu qismlarning farqlanuvchi xususiyat paydo qilishi asimmetriyani (nosimmetriya) tashkil etadi. Liboslarda kompozitsion markazning ma'lum bir yo'nalishda joyidan siljirilishi bois, shaklning tekislikdagi ifodasidan uning ko'lamiga ko'chirilishi natijasida shaklning o'zi va qolaversa, uning plastik tavsifida o'zgarish yuz beradi. Ushbu jarayonda eng sodda elementlardan biri, bu - simmetriya tekisligi bo'lib, u siluetning frontal markazidan o'tib uning ikki morfologik ("morfo" – qurish, "logos" – o'rganmoq) qismlarga bo'linishi orqali namoyon bo'ladi. Simmetriya o'qlari deb, simmetriya va asosning perpendikulyar tekislikdagi joylashgan bo'ylama chiziqlariga aytiladi. Mazkur jarayonda avvalo simmetriya o'qlariga ega bo'lgan shakl, geometrik teng qismlarga bo'linishi mumkinligida namoyon bo'ladi. Simmetriya guruhleri:

Klassik simmetriya. Klassik simmetriyani hosil qilish jarayonida uning aynan fazoviy holatigina o'zgarib, metrik xususiyatlari: uzunligi va eni avvalgi holicha qoladi. Bunday o'zgarishlar ikki – *ko'zgudagi singari*, ya'ni *muvofiglik* simmetriyasini tashkil qilib, geometrik tenglikni hosil qiladi.

Ko'zgusimon tenglik deyilganda – shakllarning jismoniy yoki ayrim shakl qismlarining fazoda teng taqsimlanmagan sifatidagi ko'rinishi tengligi nazarda tutiladi. Simmetriyadagi ko'zgusimonlik (akslanishlik) tabiat obyektlari – kristall, kapalak va h.k.lar, insonlar tomonidan yaratilgan buyumlarining umumlashtirilgan shakllari doirasini qamrab oladi.

Simmetriyada *muvofiglikni* shaklda ikki qarama-qarshi tomonni ustma ust tushirganda tenglik hosil bo'lishi, ya'ni yaratilayotgan shakllarning nuqtalari bir - biriga mos kelishida kuzatish mumkin.

Ko'chirib o'tkazish simmetriyasi – asosan naqsh yaratish jarayonlarida ko'zga tashlanuvchi simmetriya vositalaridan biridir. Libos tarkibida bu usul – geometrik shakllar ma'nosida modaning turli davrlarida shakllarning aynan takrorlanib kelishi jarayonlarida namoyon bo'ladi.

Simmetriyaning fazoda aylantirish usuli bo'ylama o'q atrofida amalga oshirilib, libosning benuqson tarzidagi shakllarini hosil qilishi tushuniladi. Bunday o'xshashlikni biz o'simliklar simmetriyasida kuzatishimiz mumkin. (2.14-rasm)

Klassik simmetriya


	<i>geometrik tasvir</i>	<i>analoglar</i>	<i>libos modellari</i>
<i>Akslanish</i>			
<i>O'tkazish</i>			
<i>Fazoda aylantirish</i>			
<i>Tekislikda Aylantirish</i>			

2.14– rasm. Klassik simmetriya qonuniyati.

Afin simmetriyasi. Afin simmetriyasi ma'lum bir shaklning fazoviy holatini aynan takrorlanuvchi vositalar orqali o'zgartirish natijasida shakllantiriladi. Bunda shaklning asosini o'zgartirmay uni *cho'zish*, *siqish* va *ko'chirish* vositalari orqali qayta tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Afin simmetriyasida *cho'zish* bu shaklning shunday o'zgarishi bo'lib, unda asosiy joylashuv nuqtasida joylashgan tekislik o'zgarmay qoladi va u *cho'zish* tekisligi deb ataladi. Unga parallel bo'lgan tekisliklar *cho'zish* yo'nalishi bo'ylab joylashadi. (2.15-rasm).

Afin simmetriyasi

geometrik tasvir shakl simmetriyasi namunalar libos namunalari



2.15 – rasm. Afin simmetriyasi.

Cho'zish simmetriyasi lif va yubka qismlarini uzaytirish orqali hosil qilinadi. Tasniflash qonuniyatlari ko'rib chiqilayotgan shaklning bo'ylama o'qini belgilab olish orqali uning kelib chiqish joylashuvini aniqlab olish va aniqlangan cho'zish tekisligi yo'nalishini mos holda amalda qo'llash vositalarini o'z ichiga oladi.

Cho'zish darajasi qomatning ko'ndalang kesimlaridagi konstruktiv chiziqlarga mos kelishi, hamda lif yoki yubkada tepadan pastga qarab yo'naltirilishi lozim.

Siqish simmetriyasi – vositasi cho'zishga nisbatan qarama-qarshi tushuncha hisoblanadi. Siqish kattaligi uning tekislikdagi holatiga proporsional bo'ladi.


Siqish libos qismlari hisoblanuvchi – lif va yubkani kaltalashtirish vositasida amalga oshiriladi.

Siljitish – shaklni qayta tashkil qilish jarayonlarida siljish tekisligini o'zgarmay qolishida namoyon bo'ladi. Simmetriyada bunday o'zgarishning o'ziga xosligi shakl plastikasini qayta tashkil qilish jarayonlarida uning hajmini o'zgarmay qolishidir.

A. **O'xshashlik simmetriyasi.** O'xshashlik simmetriyasini hosil qilish jarayonlari *afin* simmetriyasi guruhlari xususiyatlari bilan hamohangdir. O'xshash deb bir xil asosga ega bo'lgan shakllarga aytiladi. O'xshashlik simmetriyasining eng sodda ko'rinishi "K" qonuniyatidir. Bu jarayon shaklning o'xshash qismlari masshtabini kattalashtirish yoki kichiklashtirish usuli orqali parallel ravishda ko'chirib o'tkazishni o'z ichiga oladi. Barcha shakllar belgilangan nisbatlar doirasida vertikal yo'nalish bo'yicha rivojlanadi. (2.16-rasm)

O'xshashlik simmetriyasi

geometrik tasvir namunalar libos namunalari shakl simmetriyasi.



2.16– rasm. O'xshashlik simmetriyasi.

"L" qonuniyati o'xshashlik simmetriyasidagi murakkab vositalardan hisoblanadi. "L" qonuniyatining mantiqiy asosi liboslardagi shakllarning spiral yo'nalishi bo'yicha rivojlanishida namoyon bo'ladi. Bu turli xil taxtlar, bichim chiziqlari, burmalar bilan tashkil qilinadi.

B. **Egri chiziqli simmetriya.** Mazkur simmetriya tabiiy shakllarga xosdir. Uning mohiyati qayta shakllantirilgan tekis chiziqli simmetriyadan egri chiziqli simmetriyaga o'tishida namoyon bo'ladi. Egri chiziqli simmetriyani tashkil qilishda asosiy o'ziga xosliklar: bukish, urishish, buzish – simmetrik shaklning asosini aylantirish vositalarida foydalaniladi:

Aylantirish simmetriyasi – oddiy simmetrik shaklning mos tarzda chap va o'ng tomonlari qayta shakllantirish jarayonlarida vujudga keladi. Aylantirish darajasi belgilanayotgan harakat kuchining hajmiga bog'liq bo'ladi.

Ezilish simmetriyasi – ikki xil shakldagi tarixiy namunalar asosida vujudga keltiriladi. Mazkur jarayondagi o'zgarishni amalga oshirishda bo'yлама asos bo'yicha shakl quriladi va uni qayta shakllantirilgan yo'nalishi bo'yicha belgi bilan izohlab qo'yiladi.


Sindirish simmetriyasi – simmetrik shaklning qayta shakllantirilishi jarayonida asos o'qlari va yuzasining buzilishiga ta'siri bilan izohlanadi.

Egilganlik simmetriyasi – bunday simmetriya deb shaklning shunday bir o'zgarishiga aytiladiki, bunday jarayon vositasida uning ilk simmetrik holati o'zgarib egri chiziqli o'q va yuzani tashkil qilishi bilan izohlanadi.

Moda tarixida bunday shakllar shartli ravishda lotin tilidagi "S" harfi orqali ifodalalanadi. Plastik bukilish sodda va murakkab ko'rinishlarga bo'linadi. (2.17-rasm)

Egri chiziqli simmetriya

geometrik tasvir namunalar shakl libos namunalari

<i>aylantirish simmetriyasi</i>				
<i>ezilish</i>				
<i>sindirish</i>				
<i>oddiy egilish</i>				
<i>murakkab egilish</i>				

2.17– rasm. Egri chiziqli simmetriyasi.

Libos tarixida egri chiziqli simmetriya kiyimlardagi shleyflar, turli xil qo'shimcha qismlar va rang xususiyatlari orqali hosil qilingan.

Simmetriya va asimmetriya vositalaridan madaniy meros hisoblanuvchi milliy liboslar yaratish jarayonlarida ham keng qo'llanilgan. Bunda yaqqol ko'zga tashlanuvchi jihat, avvalo mazkur liboslarning dekorativ o'ziga xosligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bunda simmetrik ya'ni bir-birini takrorlovchi, gohida esa aksincha nosimmetrik bir-biridan farq qiluvchi naqshinkorlik bilan bezatilishida kuzatish mumkin. Shu sababli, etnografik liboslar dizaynerlar uchun libos loyihalash jarayonlarida takrorlanmas ilhom manbai bo'lib kelmoqda. Zamonaviy liboslarda etnografik elementlarning mazkur jihatlari nafaqat tarixiy libos bichimlari va milliy matolardan tortib to liboslardagi kichik detallar hisoblanuvchi ornamentlarni ham o'z ichiga oladi.

Savol va topshiriqlar

1. Libosdagi simmetriya qonuniyati xaqida so'zlab bering.
2. Libosdagi assimetriya qonunuyati xaqida so'zlab bering.
3. Libosdagi simmetriya va assimetriya qonuniyatini farqini libos namunalari tushuntiring.
4. Klassik simmetriya qonunuyati xaqida so'zlab bering.
5. Afin simmetriyasi qonunuyati xaqida so'zlab bering.
6. Egri chiziqli simmetriya qonunuyati xaqida so'zlab bering.
7. Asimmetrik ko'rinishdagi eskizlar chizing va bunday kompozitsiyaning emotsional ta'sirini tushuntirib bering.
8. Libosdagi simmetriya qonuniyati aks etgan mavzularga mos libos eskizlarini A3 o'lchamda oq-qora grafikada yordamida ifodalang.
9. Libosdagi assimetriya qonuniyati aks etgan mavzularga mos libos eskizlarini A3 o'lchamda oq-qora grafikada yordamida ifodalang.

3-MAVZU: LIBOS KOMPOZITSIYASIDA RITMIK VA METRIK TAKRORLANISHLARNI O'RGANISH.

Reja

1. *Libos kompozitsiyasida ritm qonuniyati.*

2. *Libos kompozitsiyasida metr qonuniyati.*

Ritm – shaklning mutanosib va oson seziladigan qismlarining mavjud qonun - qoidalar asosida takrorlanib kelishidir. Ritm libos vazni (massa), hajm va shu kabi vositalarning ortishi yoki kamayishi bilan ifodalanadi. (3.1-3.3-rasm).

Libos dizaynida ritm, muhim rol o'ynaydi. Ritm, har qanday san'at asarining asosiy elementlaridan biri bo'lib, u ko'rish qobiliyatini kuchaytiradi va libosning umumiy ko'rinishini shakllantiradi. Ritm takrorlanish va harakatning birligi hisoblanadi. U asosan shakl, rang, tuzilish va naqshlar orqali yaratiladi. Libos dizaynida ritm, ko'pincha, elementlarning takrorlanishi va ularning bir-biri bilan munosabati orqali hosil bo'ladi. Bu takrorlanishlar, kiyimning harakatini, ko'rinishini va hissiyatini belgilaydi.

Statik (oddiy) ritm - bu qandaydir shakl elementining teng oraliqlarda almashinishi:

- bir xil elementlarni ular orasidagi nol oraliq bilan almashtirish (oraliq elementlar orasidagi chegara);
- bir xil elementlarni ma'lum bir belgilangan qiymat oralig'i bilan almashtirish.

Statik ritm kompozitsiyani tinchlik va muvozanat bilan ta'minlaydi, lekin boshqa tomondan, u statiklik va biroz monotonlikni beradi. Libosda elementlarning haddan tashqari takrorlanishi va bir xillik uning dizayn yechimlari ifodaligiga noo'rin ta'sir ko'rsatadi va insonlarda salbiy his-tuyg'ularni keltirib chiqaradi.

Dinamik ritm - kompozitsiyaning o'zgaruvchan elementlari yoki intervallarining almashinishi bilan shakllanadi.

Dinamik ritm elementlari turli elementlarga mos kelishi mumkin:

- teng shakl elementlarini ular orasidagi intervallarni o'zgartirish bilan almashishi (o'sish yoki kamaytirish);

- o'zgaruvchan shakl elementlarini (o'sish yoki kamaytirish) ular orasidagi doimiy intervallar bilan almashtirish;

- o'zgaruvchan shakl elementlarining o'zgarishi (ko'payishi yoki kamayishi), ular orasidagi intervallarning o'zgarishi (ko'payishi yoki kamayishi)kamaytirish);

Dinamik ritm arifmetik va geometrik progressiyaga qarab rivojlanishi mumkin.

Liboslar loyihadini yaratish jarayonida dizaynerlar ritmning quyidagi turlaridan foydalanadilar:

- *Vizual ritm*: insonlarning ko'rish orqali shakllanuvchi hissiyotlariga ta'sir etuvchi elementlarning takrorlanishi. Masalan, bir xil rangdagi naqshlar yoki chiziqlar orqali yaratilgan ritm, kiyimning ko'rinishini yanada ifodaliligiga xizmat qiladi.

- *Harakat ritmi*: libosning harakati va undagi elementlarning joylashuvi orqali yaratiladi. Misol uchun, uzun chegaralar yoki qatlamlar kiyimning harakatda qanday ko'rinishini belgilaydi.

- *Emotsional ritm*: kiyimning hissiyotini ifodalovchi elementlar orqali yaratiladi. Ranglar va naqshlar orqali berilgan hissiyot, libosni kiygan insonning ruhiy holatini aks ettiradi.

Ritm, libos kompozitsiyasini hosil qilishda bir nechta jihatdan muhim bo'lgan elementlar qatoriga kiradi:

1.*Eстетik ta'sir ko'rsatish*: ritm, libosning vizual ko'rinishini boyitadi. Takrorlanayotgan elementlar jozibadorlikni oshiradi va libosga o'ziga xoslik beradi.


2.*Harakatiga ta'sir etish*: Kiyimning harakati ritmik elementlar orqali belgilanishi mumkin. Bu esa libosni kiygan inson uchun qulayligini ta'minlaydi va uning harakatlarini osonlashtiradi.

3.*Muvozanatni ta'minlash*: Ritm, libosning muvozanatini saqlashda yordam beradi. Takrorlanayotgan elementlar o'rtasida muvozanat hosil qilish orqali dizaynerlar libosning umumiy tuzilishini optimallashtirishlari mumkin.



3.1-3.3 – rasm. Ritm va metr qonuniyati aks etgan libos namunalari.

Ritmik takrorlanish - o'lchamlarning yoki shakl elementlarining takrorlanish qonuniyatidir. Ritmik takrorlanish juda ko'p holatlarda, tabiatda, tabiat shakllarida, mehnat jarayonlarida, san'at asarlarida uchraydi. Ritmik ko'rinish barcha jonzod va o'simliklarga xos xususiyat. Ritm orqali kostyum kompozitsiyasiga aniqlik, salobat va alohida e'tiborni tortuvchi kayfiyat shakllantirish mumkin. Kostyum kompozitsiyasida ritmnning bir necha turlari mavjud, shakl va uning bo'laklarining ritmi, shakl ichidagi xajm ritmikasi, konstruktiv va bezakli choklar ritmikasi, faktura va mato rasmi ritmikasi, ranglar ritmikasi, elementlarning joylashish ritmikasi va h.k. (3.4-3.7-rasm). Kostyumda ritmni tashkil qilish usullari: - gorizontal - gorizontal chiziqlar; - vertikal; - spiral; - diagonal; - radial nur.



3.4-3.7 – rasm. Ritm qonuniyati aks etgan tabiat shakllari, me'morlik obyektlari va libos namunalari

Ritm – liboslardagi kompozitsion qismlarning o'zaro mutanosiblik xususiyatlariga ta'sir ko'rsatuvchi kompozitsiya vositalaridan hisoblanadi. Ritm libosning proporsiyasi, shakliy – fazoviy tuzilishi bilan chambarchas bog'liq. Ritm tashkil qilishning asosiy belgisi, bu – kompozitsiya elementlarining takrorlanishi va ular orasidagi masofa (interval) mutanosibligini yaratishda namoyon bo'ladi.

Metrik takrorlanish esa o'lchamlarning yoki shakl elementlarining ma'lum bir hil masofada takrorlanish qonuniyatidir.(3.7- 3.8-rasm).



3.7-3.8-rasm. Metr qonuniyati aks etgan liboslari fashion illiyustratsiyasi.

Kostyumning ritmik shakllantirilishi to'rtta asosiy jihatlarga ega:

1. Ma'lum bir g'oya asosidagi kostyum yaratish tizimida libos siluetining aksessuarlar bilan o'zaro uyg'unligini yaratish;
2. Libos shaklining bo'ylama, ko'ndalang va egri chiziqlar asosidagi qismlarini matodagi rang va faktura tizimlari bilan ritmik muvozanatini hosil qilish;
3. Libosning bezak choklar, burmalar, taxlamlar vositasida shakllantirish.
4. Kostyumni unda qo'llaniladigan ornamentlar bilan ritmik mutanosibligini ta'minlash⁴.

Ritmik harakat libosdagi biror tarkibiy qismning ma'lum bir masofada takrorlanishiga qarab metrik yoki teng o'lchamli bo'lishi mumkin. Bunday ritm insonlarga sokinlik va statika tasavvurini beradi. Bir xil shakllarni teng o'lchamda katta maydonlarda tasvirlanishi inson ko'zini charchatadi. Bunday libos kompozitsiyasi bir turli va zerikarli ko'rinadi. Libos shaklini loyihalashda undagi elementlarning ritmik ifodasi – sust, ravon bo'lishi, jadallashishi va keskin o'zgarib turishi xususiyatlaridan foydalaniladi.

Teng bo'lmagan ritmik ifoda insonlarda qiziqish uyg'otadi. Chizgi tarkibiy qismlarining kattalashuvi va kichrayishi, ular orasida masofalar, hamda kompozitsion tashkil etuvchilar, shu bilan bir qatorda faktura va h.k.larning holati mutanosib holdagi teng bo'lmagan muntazamlik ritm hosil qiladi, bunday ritmik tizim izlanishlari kompozitsiyadagi har bir bo'lakning o'zaro munosabatlari yechimi bilan bog'liq bo'ladi. Bu aralash ritm deb ataladi. Bunday ritmik muvofiqlik tizimi vositasida dizaynerlar yangidan yangi libos loyihalarini yaratadilar. Liboslar yaxlit holda o'zaro bog'liq bo'lgan bir xildagi, turli metrik yoki ritmik xarakterga ega bo'lgan qismlardan tashkil etilishi mumkin, bunday tashkil etishning to'rt imkoniyati mavjud: “teng metrik va teng ritmik; teng metrik va turli ritmik; turli metrik va teng ritmik; turli metrik va turli ritmik”⁵.

Tarkibiy qismlar ko'paytirilgan holda, asosiysini ajratish va urg'u berish talab etiladi. Bunda asosiy rang va asosiy shakl mavzu rivojining xususiy holatini kompozitsion tashkil etuvchilari sifatida ajratish imkoniyatini paydo qiladi.

⁴ Художественное оформление текстильных изделий. – М.: 1988. - 39 б.

⁵ Основы теории проектирования костюма. – М.: 1988. - 153 б.

Savol va topshiriqlar

1. Libosdagi ritm qonuniyati xaqida so'zlab bering.
2. Libosdagi metr qonunuyati xaqida so'zlab bering.
3. Ritmik takrorlanish va metrik takrorlanishning o'zaro farqini tushuntiring.
4. Libosda ritmik qonuniyatni qo'llashning o'ziga xosligi qanday?
5. Libosda metrik qonuniyatni qo'llashning o'ziga xosligi qanday?
6. Libosdagi ritm qonuniyati aks etgan mavzularga mos libos eskizlarini A3 o'lchamda oq-qora grafikada ifodalang.
7. Libosdagi metr qonuniyati aks etgan mavzularga mos libos eskizlarini A3 o'lchamda oq-qora grafikada ifodalang.


4-MAVZU: O'XSHASHLIK, NYUANS VA KONTRASTNI AKS ETTIRUVCHI LIBOS ESKIZ CHIZISH.

Reja

1. Libosda o'xshashlik qonuniyati.
2. Libosda nyuans qonuniyati.
3. Libosdagi kontrast qonuniyati.



O'xshashlik - shaklning bir hil elementlarining to'liq o'xshashligidir. (4.1-rasm). Libos tarkibidagi o'xshashlik - shakllar, o'lchamlar, plastika, ranglar, fakturalar xususiyatlarining tengligini nazarda tutadi. Bu kostyumni uyg'unlashtirishning eng muhim usullaridan biridir.

O'xshashlik qonuniyatining eng oddiy namunasi sifatida klassik kostyum keltirish mumkin. Bunday kostyumda bir vaqtning o'zida fakturalarning tengligi va uning barcha elementlari ranglarining tengligi mavjud. Kostyum tarkibidagi o'ziga o'xshashlik, shuningdek, kostyumning turli elementlarida bir xil detal yoki uning xususiyatlarini takrorlashda ham namoyon bo'lishi mumkin. Misol uchun, bitta kostyumda kiyimning yuqori va pastki qismlarida dekorativ bezak mavjud bo'lishi mumkin.



4.1 – rasm. O'xshashlik qonuniyatiga doir libos namunalari


Kostyumdagi o'xshashlikning yanada keng tarqalgan namunasi - bir xil rangdagi bir nechta elementlarning kombinatsiyasi hisoblanadi. Klassik kostyumda barcha aksessuarlar ko'pincha bitta rang gammasida ifodalanadi. Biroq, zamonaviy modada bu uslub juda sodda ko'rinadi. (4.2-4.6-rasm)



4.2-4.6-rasm. Kostyumdagi o'xshashlik qonuniyatiga doir libos namunalari

Nyuans - bu kostyum elementlaridagi ozgina farq. Kostyumning nafisligiga erishish uchun foydalaniladi. Nyuans tamoyiliga ko'ra yaratilgan liboslar ayollar garderobining asosini tashkil qiladi, chunki u kontrast printsipli bo'yicha ishlab chiqarilgan kiyimga nisbatan erkin konfiguratsiya va o'zgaruvchanlik imkoniyatiga ega.

Loyihalashda libosdagi **nyuans** qonuniyati – libos qismlari va ularning rang vositalari bilan o'zaro uyg'un holda qo'llash natijasida hosil qilinadi. Bu qonuniyatlar avvalo libosdagi chiziq va soyalarning rang va yorug'lik vositalari orqali tartibga keltirish, shu bilan bir qatorda fakturaning libos kompozitsiyasi, proporsiyasi va ritmik harakatlari bilan mutanosibligini rang-tus vositalari yordamida muvozanatga keltirish jarayonlarida ko'zga tashlanadi. (4.7-rasm).



4.7– rasm. Nyuans qonuniyatiga doir libos namunalari

Kiyimdagi nyuanslar chiziqlar, rang, faktura va nihoyat, shakllarning o'zaro munosabatlarida o'zini namoyon qilishi mumkin. Rangli nyuanslar kostyumning umumiy rang sxemasida turli xil soyalar va yarim tonlarning kombinatsiyasida namoyon bo'ladi. Rang sxemasi nyuanslarga asoslangan kostyum odatda bitta rangda qaror qilingan kostyumga qaraganda ancha boy, murakkabroq ko'rinadi. Libos elementlarini uyg'unlashtirishda

nyuanslardan foydalanish shaxsiy ijodkorlik uchun juda ko'p imkoniyatlarni beradi. (4.8-4.10 – rasm).




4.8-4.10– rasm. Nyuans qonuniyatiga doir liboslar fashion- illyustratsiyasi

Qarama-qarshilik (kontrast) - solishtirilgan (qiyoslangan) bir hil shakl elementlarining kuchli tengsizligi bilan bog'liq munosabatlar orqali shakllantiriladi (o'lchamlar, plastika, ranglar, teksturalar, uslublar va boshqalarning bir obraz doirasidagi sezilarli farqlari). Bu holdagi bog'lanish aniq ifodalangan farqlar va qarama-qarshilik tufayli shakllanadi. Kostyumdagi qarama-qarshi elementlarning mavjudligi obrazni yanada yorqin va esda qolarli qiladi. (4.11-rasm).

Shunday qilib, kostyumdagi turli mato naqshlarining kontrastli kombinatsiyasi dinamika va harakat hissini keltirib chiqaradi. Binoq, kontrastli shakl, rang yoki fakturalarni bir kostyum doirasida birlashtirganda, doimo libos obrazining yaxlitligini saqlab qolish muhim kerak sanaladi.

Kontrast — bu ikki yoki undan ortiq element oʻrtasidagi farqni ifodalaydi. U ranglar, shakllar, oʻlchamlar yoki boshqa elementlar oʻrtasida boʻlishi mumkin. Kontrast, asarda diqqatni jalb qilish va koʻrinishni yanada kuchaytirish uchun ishlatiladi. Masalan, qora va oq ranglar oʻrtasidagi kontrast juda kuchli boʻlib, u koʻrinishni aniq va jozibador qiladi. Kontrast yordamida dizaynerlar muvozanatni saqlash, kompozitsiyani kuchaytirish va hissiyotlarni ifodalash imkoniyatiga ega boʻladilar.

Kontrast dinamika va ifodalilik bilan ajralib turadi. U gʻayrioddiy, avangard liboslarni loyihalashda keng qoʻllaniladi. Kontrast qonuniyati qoʻllanilgan liboslar yaratishdan asosiy maqsad - umumiy muhitdan ajralib turish, koʻzga yorqin tashlanish. Ushbu qonuniyat - etno liboslarida, - estrada kostyumida, - sport kiyimlarida, podiumbop liboslarda, - faol dam olish uchun kiyimlarda, - bolalar va yoshlar kiyimida keng qoʻllaniladi.



4.11– rasm. Kontrast (qarama-qarshilik) qonuniyatiga doir libos namunalari

Qarama-qarshilik (kontrastning mavjud emasligi) aksincha – dinamikaning mavjud emasligini bildiradi. Meʼyordan ortiq qoʻllanilgan kontrast - kompozitsiya yaxslitilgining buzilishiga sabab boʻladi. Kontrast qonuniyati qoʻllanilgan kostyumni loyihalashda quyidagi qoidaga amal qilinadi: bir vaqtning oʻzida kontrast kompozitsiyaning ikkitadan koʻp boʻlmagan elementiga nisbatan qoʻllaniladi. Boshqa barcha elementlar nyuans yoki oʻxshashlik tamoyiliga muvofiq tashkil etiladi. (4.12-4.14-rasm).



4.12-4.14– rasm. Kontrast qonuniyatiga doir libos namunalari fashion illyustratsiyasi

Savol va topshiriqlar.

1. Libosdagi o'xshashlik qonuniyati xaqida so'zlab bering.
2. Libosdagi nyuans qonuniyati xaqida so'zlab bering.
3. Libosdagi nyuans va kontrast qonuniyatlari farqini misollar orqali tushuntiring.
4. Libosdagi o'xshashlik va kontrast qonuniyatlari farqini misollar orqali tushuntiring.
5. Libosdagi o'xshashlik qonuniyati aks etgan libos eskizlarini A3 o'lchamda oq-qora grafikada ifodalang.
6. Libosdagi nyuans qonuniyati aks etgan libos eskizlarini A3 o'lchamda oq-qora grafikada ifodalang.
7. Libosdagi kontrast qonuniyati aks etgan libos eskizlarini A3 o'lchamda oq-qora grafikada ifodalang.

5-MAVZU: LIBOS KOMPOZITSIYASINI TUZISHDA ODDIY PROPORSIYA TURLARINI QO‘LLAB ESКИZLAR CHIZISH.

Reja

- 1. Libos kompozitsiyasini tuzishda oddiy proporsiya qonuniyati.*
- 2. Inson qomatini chizishdagi proporsiya xossalari.*
- 3. Inson qomati qurishdagi asosiy o‘lchov nisbatlari.*

A.Grashin ta’kidlashicha: “Libos dizayni sohasini “dizayn-loyihalash” (loyihalashtirilgan obyektning barcha ijtimoiy zaruriy xususiyatlarining yaxlit tuzilishi va kombinatsiyasi) faoliyat turi sifatida tadqiq etish quyidagilarga asoslanadi: “Uning predmeti va vazifalarining dialektik aloqasini ikki aspekt doirasida ko‘rish mumkin: estetik (go‘zallik) - badiiy jihatdan mutanosib bo‘lgan uyg‘unlikka erishishga bo‘lgan talab; va utilitar (funktional) - barcha mavjud amaliy turmush tarzi talablariga javob bera olish”. Muallif shuningdek, dizayn aspektlari faoliyat doirasidagi talablarni quyidagicha tasniflaydi:

Birinchi aspekt, obyektida go‘zallikni yarata olish, o‘zida:

- ijobiy emotsional kayfiyat hosil qilish; estetik uyg‘unlikni shakllantirish; badiiy jihatdan mutanosib obraz yaratish; assotsiatsiv belgilarni namoyish etish jihatlarini qamrab oladi.

Ikkinchi aspekt, (foydalilik) ob’ektning foydalanishga qulayligini shakllantirish, o‘zida:

- libos konstruksiyasining mukammal namunasini yaratish; texnologik maqsadga muvofiqligini shakllantirish; iqtisodiy samaradorligiga erishish; ergonomik qulaylik hosil qilish kabi talablarni o‘z ichiga oladi⁶.

Libos dizayni sohasida kostyum kolleksiyalarini loyihalash jarayonlariga qo‘yiladigan mazkur talablar asosida faoliyat olib borishda birinchi navbatda inson qomatining proporsiyalarini inobatga olish zarur.

Inson qomatining proporsiyalari — bu inson tanasining o‘lchamlari va ulushi, ular dizayn loyihalash va uning estetik xususiyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Proportsiya - bu o‘lchovlar tizimi bo‘lib, unda aniq parametrlar emas, balki nisbatlar asos qilib olinadi. Proportsiyalar - qismlarning bir-biriga va butunga bo‘lgan munosabatlaridir.

⁶ Abdullayeva F. Modalar dizayni aspektlarining ustuvor tamoyillari. San’atshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: 2024.

Proporsiyani qo'llashda ko'pincha modul - butun o'lchov birligidan foydalaniladi. Inson figurasining nisbati moduli odatda boshdir. (5.1-rasm).

Inson qomatining proporsiyalari kompozitsiyaning estetik muvozanatini ta'minlaydi. To'g'ri proporsiyalar, libosning ko'rinishini yanada jozibali qiladi va insonlarning e'tiborini tortadi. Masalan, tananing yuqori va pastki qismlari o'rtasidagi muvozanat, libosning umumiy ko'rinishini yaxshilaydi.

Shu bilan bir qatorda, inson proporsiyalari libosning qulayligi va funksionalligini belgilaydi. Har bir insonning o'lchamlari va shakli turlicha bo'lgani uchun, libos dizaynerlari bu farqlarni hisobga olishlari kerak. Masalan, uzun ko'ylaklar yoki kalta yubkalar turli xil proporsiyalarga ega insonlar uchun turlicha ko'rinishi mumkin.

Liboslar dizayn yechimi inson proporsiyalariga mos kelishi kerak, chunki bu vaziyatga mos kelishni ta'minlaydi. Masalan, rasmiy tadbirlar uchun tayyorlangan liboslar va kundalik kiyimlar o'rtasidagi farq, ularning proporsiyalari va konstruksiyalariga bog'liq. Har bir vaziyatda inson proporsiyalarini hisobga olish, libosning to'g'ri ko'rinishini ta'minlaydi.

Inson proporsiyalari yordamida libos dizaynerlari hissiyotlarni ifodalashlari mumkin. Masalan, baland va tor bichimlar ko'proq zamonaviy va jozibador ko'rinishni yaratadi, keng va past bichimlar esa qulaylik va oddiylik hissini beradi. Bu esa, libosni kiydirgan insonning xarakteri va kayfiyatini aks ettirishi mumkin.


Shuningdek, inson proporsiyalari ijtimoiy va madaniy kontekstga ham bog'liq. Turli xil madaniyatlarda go'zallik standartlari turlicha bo'ladi, shuning uchun dizaynerlar o'z to'plamlarida bu farqlarni hisobga olishlari zarur. Misol uchun, ayrim madaniyatlarda ayollarning beli tor bo'lishi muhim sanaladi, boshqalarda esa kenglik afzal ko'riladi.

Kostyumdagi proporsiya - shakl qismlari o'rtasidagi munosabat. Proporsiya - qismlarni miqdoriy muvofiqlashtirish usuli va estetik yaxlitlikka, shakl uyg'unligiga erishishga hissa qo'shadigan tizim yaratishni ko'zda tutadi.

Kostyumni tashkil qilishda ikkita asosiy nisbat turi qo'llaniladi: oddiy arifmetik va murakkab geometrik.

Arifmetik nisbatlar butun sonlar orasidagi matematik munosabatlarga asoslanadi. Ular modul sistemasiga asoslangan: modul obyektning o'lchamlarini (o'lchov birligi) hisoblash uchun asos sifatida olinadi. Inson


qomatining nisbatlarini tavsiflashda uning boshining balandligi hisobga olinadi, mahsulot nisbatlarining tavsifi - mahsulotning istalgan qismining o'lchami. Qismlar va butun o'rtasidagi munosabat tanlangan modulni takrorlash orqali o'rnatiladi. Oddiy proporsional munosabatlar kasr shaklida ifodalanadi. Masalan: 1:1, 1:2, 1:3, 1:4 va boshqalar. Moduldan foydalanish ko'z va mutanosiblik tuyg'usiga asoslangan bo'lib, ular genetik jihatdan insonga singib ketgan va tajriba va bilimlarni rivojlantirish bilan yaxshilanadi.



5.1– rasm. Oddiy proporsiya asosida tasvirlangan inson qomatidagi libos namunalari


Inson bosh va yuz qismini chizish asoslari:



1. Doira shakli chiziladi so'ngra, uni ikki tarafidan ozgina hajm olib tashlanib, oval shakl hosil qilinadi. Bu yerda tuxum shaklini eslab o'tish mumkin. Sababi, tuxum shakli inson bosh shaklini eslatadi.
2. Keyingi bosqichda chizilgan ovalni taxminan chamalagan holda 3 qismga bo'linadi. Yuqoridan birinchi bo'lak peshona, ikkinchisi burun va uchinchisi dahan qismiga to'g'ri keladi.
3. Belgilangan bo'laklarga inson bosh qismining asosiy chertalari: dahan, lab, burun, ko'z va qoshlar chiziladi. Muhimi, simmetriyaga rioya qilish.
4. So'ngra hajm va soyalar tugallanadi. Quloqning o'rta qismi burunning tugagan qismiga to'g'ri keladi. (5.2-rasm).



5.2-rasm. Inson bosh va yuz qismini chizishga doir misollar

Qomatning yuz qismini hisobga olmaganda qo'llar insonlar emotsional holatini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga qo'l va barmoqlar tasvirini chizish bir qancha murakkabliklarga ega. (5.3-rasm)








5.3-rasm. Qo'llar tasvirini chizishga doir misollar

Oyoq tasvirini chizish. Birinchi navbatda oyoqlarning harakatini chizqlar orqali aniqlab olamiz. Statik yoki harakatdagi qomat chizish jarayonida aynan skelet ya'ni chiziqlar asosiy ahamiyatga ega. Keyingi navbatda oyoqlarning boshlang'ich nuqtasi, tizza, boldir va to'piqlar chizig'i qo'yib olinadi.

1. Oyoqlar harakati va yordamchi chiziqlar topib olinganidan so'ng relyeflar ya'ni mushaklar harakati chiziladi.

2. Tasvirlanishi ko'zda tutilgan modelning yahlit qiyofasiga mutanosib ravishda libos, poyafzal va boshqa detallar chizib olinganidan keyin so'nggi navbatda tasvir soya yorug' nisbatlari, faktura o'ziga hosliklari asosida tugallanadi. (5.4-rasm).



5.4-rasm. Oyoqlar tasvirini chizishga doir misollar

Soch turmagi – moda yo‘nalishlarining asosiy elementlaridan biridir. U tasvirlanayotgan qiyofaga mos tushishi zarur. E’tiborlisi, soch turmaklari hajmi doimo kalla suyagidan yuqorida joylashishi zarur. (5.5-rasm).



5.5-rasm. Soch turmaklari tasvirini chizishga doir misollar

Libos dizaynida inson qomatini qurish o'rganish zarur bo'lgan eng asosiy bilimlardan sanaladi. Sababi, mazkur sohaning maqsadi insonlarning emotsional va funksional talablariga mukammal darajada javob beradigan liboslar yaratishni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda dizayner mutaxassislarining ishlab chiqarishga tadbiq etadigan liboslari ko'p hollarda inson qomatida tasvirlanadigan eskizlar orqali shakllantiriladi. Shu sababli, ushbu yo'nalishda faoliyat olib boruvchi mutaxassislar "moda va kiyim-kechaklar bilan bog'liq tasvirlarni yaratishda, libos to'plamlari loyihasini tayyorlashda inson qomatini o'ziga hosliklari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur"⁷.

Qomat qurishda asosiy o'lchov nisbati sifatida tananing bosh qismi o'lchovidan foydalaniladi. Hayotda inson boshi tana qismiga nisbatan 7 taga to'g'ri keladi. Libos modellarini yaratish jarayonlarida esa boshning tanaga



⁷ Abdullayeva F. Modalar dizayni aspektlarining ustuvor tamoyillari. San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: 2024.

nisbatini 1:7 dan 1:10 gacha ifodalash mumkin.


Ushbu mavzu yordamida 1:8,5 nisbatdagi inson qomatini to'g'ri qurish va ushbu qomat uchun liboslar tasvirlarini chizishni o'rganish mumkin.

Shaklni ideallashtirishda libos dizaynerlari "8 bosh" setkasidan foydalanadilar va balandlikni yarmiga bo'lishadi: bosh va tana + oyoqlar. Bu haqiqiy nisbatlarni juda ko'p o'zgartirmaydi va kostyumning yuqori va pastki qismlari o'rtasidagi munosabatni aniq yetkazish imkonini beradi, masalan: kofta va yubka. Shaklning nisbati juda muvozanatda bo'ladi.



Qomat harakati va hajmining nisbatlarini ham e'tiborga olish zarur. Masalan, yelka kengligi – 1,5 bosh, bel qismi – 1 ta, bo'ksa – 1,5 bosh nisbatiga to'g'ri keladi. (5.6-5.7-rasm)



5.6-5.7-rasm. Inson gavdasi proporsiyasi



5.8-5.12-rasm. Libos dizaynida mavjud libos nisbatlari



5.13-5.16-rasm. Oddiy proporsiya asosida tasvirlangan inson qomatidagi libos namunalar.

Savol va topshiriqlar

1. Libos kompozitsiyasini tuzishda oddiy proporsiya qonuniyati xaqida so'zlab bering.
2. Inson qomatini chizishdagi proporsiya xossalari qanday?
3. Uslublashtirilgan inson qomatini chizishda fashion-illyustratorlar odatda qanday nisbatdan (inson boshiga nisbatan) foydalanishadi?
4. Libos dizaynida mavjud libos nisbatlari qanday?
5. Oddiy proporsiya qonuniyati aks etgan eskizlarni A3 o'lchamda oq-qora yoki suvbo'yoq (akvarel) yordamida ifodalang.
6. Oddiy proporsiya qonuniyati aks etgan liboslarni mustaqil o'rganib o'tilgan mavzuni mustaxkamlang.

6-MAVZU: LIBOS KOMPOZITSIYASINI TUZISHDA IRRATSIONAL PROPORSIYA TURLARINI QO'LLAB ESKIZLAR CHIZISH.

Reja

1. *Libos kompozitsiyasini tuzishda irratsional proporsiya xossalari.*
2. *Inson qomatini qurishdagi proporsiya xossalari.*
3. *"Oltin kesim" qonuni.*

Ma'lumki, san'atdagi ideallikni insonlar ko'plab asrlar mobaynida shakllantirishga intilganlar. Bunday o'lchamlarni ayrimlar inson jussasi proportsionalligi vositasida, boshqalar esa atrof-muhit qonuniyatlarini anglash orqali ifodalaganlar. Ko'plab rassomlar eng axshi proportsiyani intuitiv tarzda yaratganlar. Masalan, antik davr ma'muriy inshootlari bo'ladimi, o'rta asr masjid va madrasalari va yevropaning gotika arxitekturasi, ya'ni nafaqat me'moriy inshootlar, balki rangtasvir va musiqiy asarlar, eng yaxshi lirik she'riyat, shu bilan bir qatorda gazmollarning ornamental bezagida ham qonuniyatga moslik xissiyotini anglash mumkin. Tasviriy san'atda proportsional munosabatlar yechimini topish rassom oldida turgan mas'uliyatlardan biri hisoblanadi. Yaxlit, anglanishi oson bo'lgan ornamental kompozitsiyaning tasvir maydoni uzra munosabatlarini topmasdan turib kompozitsiya yaratish mumkin emas.

Libos kompozitsiyasi dizayn loyihalash jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat estetik, balki funksional jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Irratsional proporsiyalarni qo'llash esa, bo'lg'usi dizayner ya'ni talabalarga o'z loyihalarida yangicha yondashuvni taqdim etadi.

Irratsional proporsiyalar tushunchasi. Irratsional proporsiyalar — bu geometrik yoki estetik jihatdan aniq raqamlar bilan ifodalanmaydigan nisbatlardir. Ular dizaynda ko'pincha tabiiy shakllar va muvozanatni yaratishda foydalaniladi. Masalan, oltin kesim kabi irratsional nisbatlar ko'plab san'at va arxitektura asarlarida uchraydi. Bu proporsiyalar inson ko'ziga yoqimli ko'rinadi va ko'pincha ijodiy jarayonda ilhom manbai bo'ladi.

Libos kompozitsiyasida irratsional proporsiyalarni qo'llash

1. *Shakl va siluet*: Libosning shakli va silueti irratsional proporsiyalar orqali yanada dinamik va qiziqarli ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Masalan, bel va kalta uzunliklar o'rtasidagi nisbati 1:1.618 (oltin kesim qonunligiga muvofiqligi) bo'lishi, libosning ko'rinishini yaxshilaydi.

2. *Rang va printlar*: Ranglarning va printlarning joylashuvi ham irratsional proporsiyalar yordamida yaratilishi mumkin. Ranglar o'rtasidagi nisbati va printlarning joylashuvi dizaynning umumiy kompozitsiyasini mustahkamlashi mumkin.

3. *Materiallar*: Turli materiallarning bir-biri bilan uyg'unligi ham irratsional proporsiyalar asosida yaratilishi mumkin. Masalan, matoning og'irligi va tuzilishi o'rtasidagi nisbati libosning umumiy ko'rinishiga ta'sir qiladi.

Irratsional proporsiyalar libos kompozitsiyasini yaratishda muhim vosita bo'lib, ular dizaynerlarga yangi g'oyalar va ijodiy yondashuvlarni taklif etadi. Ushbu mavzu doirasida skizlar chizish jarayoni esa bu jarayonni yanada jonlantiradi va ijodiy fikrlarni amaliyotga tatbiq etishga yordam beradi.

Kostyum kompozitsiyasida irratsional proporsiyalarning eng samarali garmonik nisbati "oltin kesim" qonuni xisoblanadi. Mazkur proporsiya turi qadim davrlardan buyon mavjud bo'lib, hattoki Pifagor ham bundan habardor bo'lgan.

"Oltin kesim" qonuniga asoslanib antik san'atdagi skulptura va arxitektura namunalari barpo qilingan. Ilk bor Leonardo Do Vinchi bu proporsiyani "oltin kesim" deya nomlagan, va shu kungacha "oltin kesim" san'at kanoni xisoblanib kelmoqda.

"Oltin kesim" shuni ko'rsatadiki, bir butunni ikki har hil bo'laklarga bo'lganda butun bo'lakning katta bo'lakka nisbati katta bo'lakning kichik bo'lakka nisbatiga teng.

Ma'lumki oltin kesimning matematik ifodasi quyidagicha $1,62:1=1:0,62$ ga teng bo'lib, yoki irratsional raqamlarning matematik qatori sifatida yaxlit raqamlar ko'rsatilishida ifodasini topadi. Ushbu raqamlar qatori (1,2,3,5,8,13,21,34,55, va hakoza) ya'ni avvalgi 2 raqamni bir-biriga qo'shilganligidan paydo bo'ladigan raqamlar, bunda har 2 yonma-yon kelgan raqamning munosabatlari oltin kesma qonuniyatiga mos keladi.

Inson qomatida tasvirlanadigan liboslar eskizlarini yaratishda chizgini ayrim qismlari yaxlitlikka keltirish doirasida ma'lum bir qoidalar mavjud. Ularning o'zaro muvofiqligi matematik ifodalarda oddiy yoki irratsional raqamlar vositasida erishiladi. Yaxlit raqamlar muvofiqligi ularning o'zaro taqsimlanishida, ya'ni $1/2$, $2/3$, $3/5$ singari o'lchamlar munosabatida ifodasini topadi. (6.1-6.4-rasm)





6.1-6.4– rasm. Irratsional proporsiya asosida yaratilgan libos namunalari



6.5-6.6– rasm. Irratsional proporsiya asosida yaratilgan liboslar
fashion illyustratsiyasi

Turli-tuman elementlardan tashkil topgan ornamental kompozitsiyalar qonuniyat doirasidagi o'zaro muvofiqlik qoidalariga bo'ysunadi. Bunday qoidalar kompozitsiya elementlari proporsionalligi munosabatiga asoslanadi. Kompozitsion qonuniyatdagi uch-komponentlilik qonuniyati kompozitsion yechimining yaxlitligi, undagi elementlarning 3 guruxga ajralishi va shakl o'lchamlari - katta, o'rta va kichik, yoki yorqinlik munosabatlari - to'q, yorqin va o'rta yorqinlik bo'yicha shakllantirilishiga aytiladi. Guruxlar o'zaro munosabatlari ko'z bilan aniqlash darajasida bo'lib, ulardan biri dominant xususiyatga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Tasvirdagi eng katta ornamental shakl kichigidan keskin farqlanmasligi kerak.

Savol va topshiriqlar

1. Libos kompozitsiyasini tuzishda irratsional proporsiya xossalari nimalardan iborat?
2. Inson qomatini qurishdagi proporsiya xossalarini qo'llagan xolda qoralama eskiz namunalarini bajaring.
3. "Oltin kesim" qonuni xaqida so'zlab bering.
4. Ilk bor proporsiyaga "oltin kesim" qonununiyati deb nom bergan rassom kim?
5. Libosda oddiy va irratsional proporsiya qonuniyati farqini aytib bering.
6. Irratsional proporsiya xossalari qo'llangan libos eskizlarini A3 o'lchamda oq-qora grafika yordamida ifodalang.
7. Oltin kesim qonuni qo'llangan liboslarni A3 o'lchamda oq-qora grafika yordamida ifodalang.
8. Internet manba'laridan irratsional proporsiya qonuniyati qo'llangan liboslarni kuzating.

7-MAVZU: TASVIRLASHNING TURLI TEXNIK USULLARINI QO‘LLASH; LIBOS (YOKI KOSTYUM) KOMPOZITSIYASINI TUZISHDA RANG VA FAKTURA.

Reja

- 1. Libos kompozitsiyasini tuzishda rang.*
- 2. Xromatik ranglar uyg‘unligi.*
- 3. Axromatik ranglar uyg‘unligi.*
- 4. Libos kompozitsiyasini tuzishda faktura.*
- 5. Liboslar uchun faktura turlarini o‘rganish.*

Rang buyumning eng muhim informatsion sifatlaridan biri hisoblanadi. Bizni o‘rab turgan tashqi muhit, tabiatda rangsiz mavudot, o‘simlik va buyum yoq. Odam yaratgan asarlarda ham rangsiz buyumlar uchramaydi.

G.Hasanboyeva va M.Shomurodova muallifligida tayyorlangan “Maxsus kompozitsiya” nomli o‘quv q‘ollanmada rang qonuniyatiga quyidagicha tavsif beriladi: -Rang — obyektiv hodisa. Rang — elektromagnit to‘lqinlardir, ularning uzunligiga ko‘ra ranglar farqlanadi. Yorituvchi nur buyumga tushganda buyum to‘qinning bir necha nurini yutadi, qolganlari esa buyumdan qaytariladi. Biz shu qaytarilgan nurlarni ko‘rib, buyumning rangini farqlaymiz. Demak, buyumdan nur qaytmasa, biz uni ko‘rmaymiz.

Liboslar loyihalarida ranglar libos kompozitsion yechimining ajralmas qismi bo‘lib, kostyumlarda noto‘g‘ri tanlangan rang uning badiiy ifodaliliga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi va yaxshi tanlangan rang yechimlari, libos badiiy ifodaliligini yanada orttiradi. Shuning uchun rassom va dizaynerlar ranglarning qonuniyatini yaxshi bilishlariga e‘tibor qaratiladi.

Rang tusi — rangning shartli belgisidir. Masalan, gizil, ko‘k, sariq binafsha va boshqalar yoki birorta o‘simlik, buyum nomiga yaqinlashtirib beriladi.

Tabiatda uchraydigan ranglarni insonlar taxminan faqat 0,1 foizini ajrata oladi. Ulardan esa taxminan fagat 10 foiziga nom berilgan. Koloristlar buyumni ma‘lum rangga bo‘yash uchun uni maxsus rang atlası bilan solishtirib, keraklisini o‘z asarida qo‘llaydi.

Rang to‘qligi - rang kuchi, rang softligi, ya‘ni romatik rangga gaysi darajada noxromatik rang aralashgan ko‘rsatkichdir. Spekr va kamalak ranglari sof ranglardir. Agar ularga oq rang aralashtirilsa, pastel ranglar hosil

bo'ladi (masalan, pushti, moviy, va b.), kulrang yoki qora rang qo'shilsa to'q ranglar hosil bo'ladi.

Oqishlik - romantik rangning oq rangga yaqinlik darajasi.

Agar spektr ranglariga qirmizi rang qo'shib, ular doira bo'ylab joylashtirilsa, ranglar doirasi hosil bo'ladi.

- Ranglarning murakkab olami har qanday ijodkordan ranglar guruhleri hamda ularning spektral tarkibi qonuniyatlari haqidagi bilimlarni chuqur egallashlarini talab etadi.

- Badiiy amaliyotda foydalaniladigan ranglar 2 ta katta guruhga ajratiladi:

- **xromatik** (*xromos* – yunoncha so'z bo'lib – rang ya'ni rangli) va

- **axromatik** (noxromatik – bo'yalmagan ya'ni, rang-tussiz) ranglar guruhlaridan iborat.(7.1-rasm)

Nima uchun libosga to'g'ri rang tanlashimiz zarur?

1. Qomatdagi yutuqlarni ko'rsatishga yordam beradi.

2. So'nggi urfdagi liboslar kiyish imkoniyati paydo bo'ladi.

3. Dizayner sifatidagi professionallik ko'zga tashlanadi.

4. Insonning o'ziga bo'lgan ishonchi yana ham ortadi.

5. Noto'g'ri tanlangan ranglar sababli qomatdagi kamchiliklar ko'zga tashlanadi.

6. Yangi harid qilingan libos ham ushbu mavsum uchun aktual ko'rinmaydi.

7. No'to'g'ri rang tanlaganligi sababli mijoz egnida dizayner yaratgan libosi go'zal ko'rinmaydi.

8. Fasllarga moslamaganligi sababli yozda yanada issiqlik his qilinadi, qish faslida esa liboslar tez urinib ketadi.

Tabiatda ranglar 3 ta asosiy ranglardan hosil qilinadi. Bular: sariq, qizil, ko'k ranglar. Qolgan ranglar shu ranglardan tashkil topadi. Ularni Xromatik ranglar deyiladi. Ingliz tilidan tarjima qilinganda "rangli ranglar" deyiladi. Xromatik ranglar tusga ega bo'ladi. Ya'ni yorqinligi bo'ladi. Xromatik ranglar: asosiy, tarkibiy va qo'shimcha ranglardan tashkil topadi.

Yorqinlik ya'ni tusga ega bo'lmagan ranglar Noxromatik (axromatik) ranglar deyiladi. Ular: Oq, qora va kul rangga hos ranglar.

Biror bir rangning ocharishi va to'qarishidan hosil bo'lgan ranglar Monoxrom ranglar deyiladi.



7.1– rasm. Rang doirasi. Axromatik va xromatik ranglar

Libos uchun tanlangan rang quyidagi 4 ta talabga javob berishi kerak. Ular:

- Qomat tipiga mos bolishi (qomatdagi yutuqli tomonlarga e'tibor qaratib uning kamchiliklarini yashirishga xizmat qilishi kerak).
- Yil fasllaridagi ob havo sharoitlarining o'ziga hosligiga javob bera olishi
- Libos egasining yosh o'ziga hosligidan kelib chiqadigan harakteriga mos bo'lishi (Bu jarayonda mijozning hoxish istaklarini ham inobatga olish zarur)
- So'nggi mavsumlar uchun urfga kirgan ranglardan foydalanilishi maqsadga muvofiq.



7.2-7.3-rasm. Xromatik ranglar uyg'unligidagi liboslar fashion illyustratsiyasi

Faktura liboslardagi badiiy ifodalikning asosiy tashkil etuvchilaridan hisoblanadi. **Faktura, bu** – liboslarda matolar yuza qatlamining turli ifoda vositalari, mato asosini tashkil etuvchi to‘qimalar reliefi turliligi, ularning yorug‘likni qaytarmaydigan yoki yaltiroqlik xususiyatlari, biror tasvirdan holi yoki naqshinkor bezakli va h.k.lardan tashkil topadi. (7.4.-7.5-rasm) Yaratilayotgan kostyum shakli yuzasidagi faktura izlanishlari, avvalo uning maqsadlarini aniqlashdan boshlanadi. Bunga ustki libos turlariga xos yaxlit yaltiroqlik va yuzasi relefli tekstil mahsulotlari: teri, mo‘yna, drap va h.k.lar kiradi. Ko‘ylak va kostyumlar tasnifida – relyef darajasi va asosi mayda o‘lchamga xos bo‘lgan katakli, turli chizgi va naqshli yechimlarga ega matolarga ko‘proq e’tibor beriladi. (7.6-7.7-rasm).



www.karendunninteriors.com



ilonitta

7.4.-7.5-rasm. Liboslar uchun faktura turlari.




7.6.-rasm. Liboslar uchun katak fakturali mato turlari.



7.7.-rasm. Liboslar uchun turli fakturali mato turlari.





7.8-7.11—rasm. Faktura qo'llanilgan libos namunalari.

Yorqin tusdagi shaffof matolar asosan tantanalar uchun bayramona liboslar loyihalashda keng qo'llanilsa maqsadga muvofiqdir. Bunday harakerga ega matolar dizaynerlarga shakl hosil qilish jarayonlarida erkin ijod qilish imkoniyatini yaratadi. Baxmal matosining yuzasi liboslar shaklini aniqlashtiradi, ya'ni shaklni anglash imkoniyatlarini yuqoriligiga xizmat qiladi. Yaltiroqlik taassurotini beradigan matolar shakl sirtiligi, tashqi chiziqlarni anglay olmaslik taassurotini beradi. Yaratilayotgan libos shaklidagi konstruktiv o'ziga xosliklarini namoyon etilishida ham matolarning fakturaga xos jihatlarini o'zaro qarama-qarshi qo'yish ijobiy natija beradi, ya'ni matoning tanda va arqoq iplarining bir-biriga nisbatan siljish hamda cho'zilish xususiyatlaridan kiyim qismlarini qiya bichishda foydalaniladi. (7.12-rasm).



7.12– rasm. Faktura qo'llanilgan libos namunalari

Mato ishlab chiqarish jarayonlarida ulardagi faktura vositalari liboslarning foydalanish maqsadlariga mosligi talablari bilan uzviy bog'liq. Foydalanish maqsadlari bo'yicha kiyim-kechaklar quyidagi guruhlarga bo'linadi: ustki kiyimlar – palto va plash gazlamalari, ko'ylak – kostyumlar uchun gazlamalar, sport kiyimlariga mos matolar va oqshom liboslari loyihalari uchun mos keluvchi gazlamalar turlari mavjud.

Palto va plashlar uchun gazlamalar bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ularga: matoning shakl hosil qilishdagi yuqori sifati, fakturasidagi aniqlik va uning rang xususiyatlari bilan uyg'unligi kabi belgilari kiradi. Bunday turdagi gazlamalarga turli ko'rinishdagi relyefli asosga ega

bo'lgan tvidlardir, "archa" nusxali, katak matolarning mayda yoki yirik o'lchamlardagi naqshli bezaklari bilan ishlov beriladi.

Ko'ylak va kostyumlar tasnifida – relyef darajasi va asosi mayda o'lchamga xos bo'lgan katakli, turli chizgi va naqshli yechimlarga ega matolarga ko'proq e'tibor beriladi. Rang uyg'unligi asosan ikki turdagi klassik ranglardan shakllantiriladi: oq, qora, kulrang, ko'k va jigarrang ranglari keng qo'llaniladi.

Kundalik turmushdagi kostyumlarni turli xil bluzkalar, shoyi sharflar va bo'yinbog'larsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bluzkalar asosan mayin shoyi, paxta va aralash tolalar vositasida toqilgan gazlamalardan tikilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, sidiq'a, turli xil nozik faktura xususiyatlari, katak va o'simlik motivlari va naqshlar vositasida bezak berilgan gazlamalar ham mazkur yo'nalishda keng qo'llaniladi.

Sport uslubidagi kiyim – kechaklar gazlamalari insonlarning kundalik va jismoniy faoliyatlariga mos assortimentlarining kengligi, yuqori sifat va rang uyg'unligi talablariga mos kelishi lozim. Kundalik turmushdagi sport uslubiga xos kiyimlar asosan trikotaj matosining turli xil fakturaga ega bo'lgan ko'rinishlaridan loyihalalanadi. Bunday gazlamalarning rang yechimi o'zining yorqin tuslari orqali insonlarga ko'tarinki kayfiyat berishi, ularning faol jismoniy hayot tarzlariga ilhomlantira olish xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Oqshom liboslari yaltiroq va yorug'likni o'ziga singdirish xususiyatiga ega bo'lgan mato va ashyolar – mo'yna va ipak, krujeva, parcha, atlas va matolaridan yaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Loyihalarda dekor bu – matolar va ashyolarning naqshinkor bezagi, unga ishlov berish vositalarini anglatadi. Badiiy va konstruktiv vositalar libos yuzasining tektonik faktura asosida taqsimlanish darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda ulardan liboslarda turli faktura, turli rang va tusli yuzalar yordamida siluetga yaxlitlik beruvchi yoki e'tiborli tarkibiy qismlarni umumlashtiruvchi vosita sifatida foydalaniladi.

Har bir mavsumiy moda o'ziga xos faktura va dekorativlikni yuzaga keltiradi. Masalan, to'qsoninchi yillar liboslaridagi matolar fakturasida yorqin, ko'zga tashlanuvchi vositalar ustunlik qilgan bo'lsa, keyingi davrlarda esa libos tendensiyalarida plastik qiyofalar matolarning tekis, bir maromdagi yuzalari hamda libos taxlamlari, burmalar vositasida erishilgan va ulardagi relefilik konstruktiv shakl vositasida yaratilgan edi. Bu jihatlarda hozirgi kun modasida ham asosiy tashkil etuvchilardan hisoblanadi.

Loyihalash jarayonlarida talabalar kostyum shaklini yaratish borasidagi o'quv topshiriqlarida liboslarga g'oya sifatida tabiiy ashyolar, o'simlik va hayvonot dunyosi, illyustrativ manbalar, tarixiy libos, turli jismlar va h.k.lardan o'zlariga ijodiy manba tanlashlari talab etiladi. Bu jarayonlarda talabalarning olgan taassurotlari negizida hozirgi kun moda yo'nalishlariga mos libos modellari yaratiladi. Mazkur izlanishlarga ijodiy manba bo'lib xizmat qilgan g'oyalar quyidagi kompozitsion vositalar asosida eskizlashtiriladi. Ularga, nuqta, chiziqlar, rang va faktura kabi vositalar taalluqlidir. Shu bilan bir qatorda bezaklar joylashuvi xarakteri va faktura elementlari ham muhim jihatlardan hisoblanadi. (7.13-rasm).



7.13– rasm. Faktura qo'llanilgan libos namunalari

Shakl yaratish jarayonlarida faktura to'ldiruvchilari katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, kalta liboslarda oyoq kiyim, kolgotka va uning bezaklari e'tiborli darajada fakturaga xizmat qiladi. Faktura va libos yuzasi dekorativ xususiyatlari, bu – nafaqat kostyum qismlari, balki ularning uyg'unligiga xizmat qiluvchi, birgalikda esa har bir aniq davrga xoslik, kostyumni kostyumni shakllantiruvchi tizim sifatida kostyumdagi morfologik xususiyatlarni ochib berishga zamin bo'lgan vosita sanaladi. (7.14-7.15-rasm).



7.14-7.15-rasm. Liboslarda faktura elementlarini qo'llangan liboslar fashion-illyustratsiyasi.





7.16-7.21-rasm. Liboslarda faktura elementlarini qo'llangan liboslar
fashion-illyustratsiyasi.

Savol va topshiriqlar

1. Libos kompozitsiyasini tuzishda rangning ahamiyati xaqida soʻzlab bering.
2. Xromatik ranglar uygʻunligi xaqida soʻzlab bering.
3. Axromatik va xromatik ranglar uygʻunligi farqini tushuntiring.
4. Xromatik ranglar ishtirokidagi libos eskizlarini eskizlarni A3 oʻlchamda suvboʻyoq (akvarel) yoki guash yordamida ifodalang.
5. Axromatik ranglar ishtirokidagi libos eskizlarini eskizlarni A3 oʻlchamda suvboʻyoq (akvarel) yoki guash yordamida ifodalang.
6. Libos kompozitsiyasini tuzishda faktura xususiyatlari qanday?
7. Liboslardagi faktura xususiyatlari qanday?
8. Libos kompozatsiyasini tuzishda faktura xususiyatlarini qoʻllagan xolda libos eskizlarni A3 oʻlchamda suvboʻyoq (akvarel) yordamida ifodalang.
9. Oʻquv adabiyotlari hamda internet tarmogʻidan faktura xususiyatlari aks etgan liboslarni kuzating va mustaqil mustaqil oʻrganing.

8-MAVZU: TASVIRLASHNING TURLI TEXNIKALARI – AKVARELNI QO‘LLAB LIBOS ESKIZLARINI YARATISH.

Reja

1. *Fashion illyustratsiya yaratishda akverel (suvbo ‘yoq) bo ‘yog‘ining o‘rni.*
2. *Eskizlarni akvarel yordamida tasvirlashning o‘ziga xosligi.*
3. *Akvarel bo ‘yog‘ining xususiyatlari.*
4. *Akvarel bo ‘yog‘ining texnikalari.*

Akvarel — suv bilan aralashtiriladigan shaffof bo‘yoqlar yordamida qog‘oz yoki boshqa yuzalarga tasvir chizish texnikasi. Akvarel bo‘yog‘i yordamida qadimgi Misr, Xitoy va Yevropa rassomlari o‘z asarlarini yaratganlar. 18-19-asrlarda akvarel texnikasi ayniqsa mashhur bo‘lib, ingliz rassomi Jozef Mallord, Uilyam Tyorner bu uslubda mashhur asarlar yaratgan. Taxminan 19-asrning o‘rtalarida yanada mashhur bo‘lib, ko‘plab rassomlar ko‘chalarda eskizlar yaratish uchun akvarel bo‘yoqlaridan foydalanishni boshladilar. Bu bo‘yoq tasvirlarni reallikga yaqin darajada ifodalash uchun qulay bo‘yoq hisoblangan.

Akvarel bo‘yoqlarining xususiyatlari quyidagilardan iborat.

1. *Shaffoflik* – Bo‘yoqlar juda nozik va shaffof bo‘lib, bir necha qatlamda ishlatilsa ham ostki ranglar ko‘rinib turadi.

2. *Yengillik va tabiiylik* – Ranglar yumshoq va tabiiy tus beradi, bu esa manzaralar va akvarel portretlar uchun juda mos keladi.

3. *Tez qurish xususiyati* – Suv asosida bo‘lgani uchun bo‘yoqlar juda tez quriydi, bu esa tez ishlash imkonini beradi.

4. *Qayta ishlash qiyinligi* – Akvarel bo‘yoqlar qurigandan keyin tuzatish qiyin, chunki qog‘oz bo‘yoqni singdiradi.

Akvarel bo‘yog‘i bilan ishlash uchun kerakli asboblari;

- akvarel bo‘yoqlar to‘plami;
- maxsus qog‘oz (yog‘li qog‘oz emas, suvni yaxshi singdiradigan qog‘oz kerak);
- kist (yumshoq va elastik kistlar tavsiya etiladi);
- suv idishi va qog‘oz salfetkalar.

Akvarel bo'yog'ining texnikalari bu;

1. "Ho'l ustiga ho'l" – suvli bo'yoqlarni ho'l qog'ozga surib, ranglarning erkin aralashishiga imkon beriladi.

2. "Quruq ustiga ho'l" – avval qog'oz ho'llanadi, keyin bo'yoq yordamida chiziladi.

3. "Quruq ustiga quruq" – bo'yoq to'g'ridan-to'g'ri quruq qog'ozga chiziladi, bu usul aniq chiziqlar yaratishda ishlatiladi.

4. Suv bilan yuvish – ranglarning yumshoq o'tishlarini yaratish uchun bo'yoq ustidan suv yordamida yuviladi.

Libos eskizlarini chizishda ham odatda ko'p dizayner va fashion-rassomlar suvbo'yoqdan (akvarel) foydalanadilar.

Akvarel, ayniqsa eskizlarni oson va tez yaratish uchun juda qulay bo'yoq hisoblanadi. Suvbo'yoq qo'llanilishi oson va bundan tashqari, ranglar o'zaro uyg'unlikda juda chiroyli rang gammalariga ega bo'lish mumkin.

Tavsirlashning akvarel texnikasi orqali fashion eskiz yaratishda 3 etapda bosqichma bosqich ishlash jarayonida eskiz yakunlanadi. (8.1-8.9-rasm).

Akvarel bo'yog'i yengillik va tabiiylik bilan ajralib turadi. U orqali tabiat manzaralari, fashion-eskizlar, portretlarni chizishda juda keng qo'llaniladi. Shu bilan birga, akvarel texnikasi mahorat va tezkorlikni talab qiladi, chunki bo'yoqlarni tuzatish qiyin.







8.1-8.9-rasm. Akvarel suvbo 'yog'i yordamida yaratilgan liboslar fashion illyustratsiyasi

Savol va topshiriqlar

1. Fashion illyustratsiya yaratishda akverel bo'yog'ining o'rni qanday?
2. Eskizlarni akvarel yordamida tasvirlashning o'ziga xosligi qanday?
3. Akvarel bo'yog'ining xususiyatlari xaqida so'zlab bering?
4. Akvarel bo'yog'ining texnikalari qanday?
5. Akvarel texnikasi qo'llangan libos eskizlarni A3 o'lchamda suvbo'yoq yordamida ifodalang.
6. Akvarel bo'yog'ida ijod qiluvchi fashion illyustrator rassomlar eskizlarini kuzating.
7. O'quv adabiyotlari va internet tarmog'idan akvarelda ijod qiluvchi fashion illyustrator rassomlar ijodiy ishlarini kuzating.

9-MAVZU: TASVIRLASHNING TURLI TEXNIKALARI – GRAFIKANI QO‘LLAB LIBOS ESKIZLARINI YARATISH.

Reja

- 1. Graifika tushunchasiga ta'rif.*
- 2. Grafikaning asosiy turlari.*
- 3. Grafika texnikasida yaratilgan fashion eskizlarning o'ziga xosligi.*

Grafika (yunoncha. graphike, grapho — yozaman, chizaman degan manoni anglatadi) — tasviriyy san'at turi. Shuningdek grafika – tasviriyy san'atning asosiy turlaridan biri bo'lib, u chiziq, nuqta, soyalar va kontrastlardan foydalangan holda tasvir yaratishga asoslangan. Grafika san'ati odatda qog'oz, karton yoki raqamli vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Grafikaning asosiy turlari

1. Amaliy grafika – kitob bezaklari, plakatlar, logotiplar va reklama dizaynini o'z ichiga oladi.

2. Chizma grafika – qalam, ko'mir, pastel, marker yoki akvarel bilan chizilgan tasvirlarni o'z ichiga oladi.

3. Bosma grafika – linogravyura, litografiya, ofset bosma kabi texnikalarni o'z ichiga oladi.

4. Kompyuter grafikasi – raqamli texnologiyalar yordamida yaratiladigan grafik ishlanmalar (Adobe Illustrator, Photoshop, CorelDRAW va boshqalar).

Texnikasi jihatidan grafika 2 turga ajratiladi: qo'lda chiziladigan rasm va matbaada chop qilinadigan, ko'p nusxada nashr etiladigan bosma mahsulotlar (gravyura, litografiya, monotipiya va shahri k.). Grafik materiallar va texnikalar xilma-xildir, lekin, asosan u qog'oz varag'ida yaratiladi. (9.1-9.7-rasm).

Grafikaning xususiyatlari:

- chiziqlar va soyalar asosida tasvir yaratish;
- minimal rang ishlatish yoki faqat qora-oq uslub;
- aniq va tafsilotlarga boy tasvirlar;
- matn va tasvir kombinatsiyasi bo'lishi mumkin.

Libos eskizlarini yaratishda grafik tasvirlash texnikalaridan keng foydalaniladi. Grafik usullar yordamida kiyimning tuzilishi, mato fakturasi va umumiy dizayn aniq ifodalanadi. Bu texnikalar dizaynerlarga o'z g'oyalarini qog'ozga tushirishda, ularni mijozlar va tikuvchilarga aniq ifodalashda yordam beradi.

Qalam bilan eskiz chizish

Qalam bilan eskiz yaratish eng asosiy va keng tarqalgan usul hisoblanadi. Bu texnika quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

1. Oddiy va tez bajariladi – dizaynerning dastlabki g'oyalarini tez chizib olishga imkon beradi.

2. Chiziqlar va shakllarni aniq ko'rsatish mumkin – kiyimning silueti va detallarini belgilash uchun mos keladi.

3. Mato fakturasini ifodalash mumkin – yumshoq va qattiq matolar aniq ifodalanadi.

Markerlardan foydalanish

Markerlardan foydalanish libos eskizlariga yorqinlik va dinamikani qo'shadi.

Bu texnika quyidagi afzalliklarga ega:

1. Boy va to'yingan ranglar beradi – liboslarga yorqinlik va hajm qo'shadi.

2. Tez ishlash imkonini beradi – chizmalarga tezkor rang berish orqali ishlash qulay hisoblanadi.

3. Matolarni aks ettirish oson – ipak, charm va jinsi kabi materiallarni ifodalash uchun qulay. (9.1-rasm)

Ko'mir va pastel texnikasi

Ko'mir va pastel vositalari yordamida eskizlar yumshoq va chuqur effekt hosil qiladi.

1. Ko'mir bilan chizish – libosning shakli va hajmini aniqlash uchun yaxshi.

2. Pastel texnikasi – ranglarni aralashtirish va fakturalarni ifodalash uchun mos.

3. Hajm va yorug'likni aks ettirishda samarali – kiyimning ko'rinishini yanada jonlantiradi.

Tasvirlashning turli texnikalari xususan, grafika texnikasi asosida libos tasvirlarini yaratishda bir nechta uslublarga murojaat etish mumkin. Ular

quyidagilardan iborat:

Realizm. Klassik rangtasvirda bo'lgani kabi, modellar juda real ko'rinadi. Yorqin ranglar yoki bo'sh qoldirilgan oq joylar deyarli mavjud bo'lmaydi. Bu yerda muhim jihat anatomik xususiyatlarni yaxshi tushunish, turli teksturalarni diqqat bilan chizish va soya va yorug'lik o'zaro ta'sirini bilishlikdir.

Semirealizm. Ushbu turdagi eskizlar realizmga yaqin, ammo biroz stilizatsiya qilingan bo'ladi. Tafsilotlar biroz aniqroq, ikkinchi plandagi elementlar esa umumlashtirib tasvirlanadi. Semirealizm grafika texnikasi asosida aksessuarlarni tasvirlash uchun mos keladi.



Dekorativ uslub. Bu yerda realizm maksimal soddalashtirish bilan amalga oshiriladi. Ba'zi elementlar (masalan, matodagi burmalar, sochlar) aniq ravshanlik bilan chiziladi, boshqalarini esa (masalan, raqamlarning o'zi) umumiy soya bilan to'ldirilishi orqali yanada soddalashtiriladi. Dekorativ uslub turli jurnallar uchun tayyorlanadigan eskizlar uchun maqbul hisoblanadi - bunday tasvirlarni chop etish oson va deyarli har qanday qog'ozda yaxshi ko'rinadi.

Minimalizm. Bu yerda so'z maksimal soddalashtirish haqida boradi. Eskizda 3 dan 7 gacha soyalar qo'llaniladi, perspektiva va hajm ifodalanmaydi. Ba'zan ijodkor o'z fikrini yetkazish uchun faqat bir nechta soyalar, bir nechta chiziq va nuqtalardan foydalanishi mumkin. Minimalizm dizaynerlar va rassomlar orasida mashhur - bunday eskizlar eng kam vaqtni oladi.

Grotesk. Mavzuni badiiy ravishda no'ananaviy tarzda ifodalashni o'z ichiga olgan syurreal va bezakli uslub. Misol uchun, tasvirlash ko'zda tutilgan libos - palto keng yelka chizig'i asosidagi dizayn yechimga ega bo'lsa mazkur uslubda ular yanada kattaroq ifodalanadi. Libos eskizi yaratish jarayonidagi qolgan assortimentlar ham shunday tarzda ifodalanadi.



9.1-rasm. Marker yordamida chizilgan eskiz namunasi





9.2-9.7-rasm. Grafika texnikasi asosida yaratilgan liboslar fashion illyustratsiyasi

Savol va topshiriqlar

1. Grafika tushunchasiga ta'rif bering.
2. Eskizlarni grafika yordamida tasvirlashning o'ziga xosligi qanday?
3. Tasvirlashning boshqa texnikalaridan, grafika texnikasini farqi qandayligini so'zlab bering.
4. Marker yordamida fashion-illyustratsiyalar chizishning o'ziga xosligi qanday?
5. Ko'mir va pastel yordamida fashion-illyustratsiyalar chizishning o'ziga xosligi qanday?
6. Grafika texnikasi asosida yaratilgan libos eskizlarni A3 o'lchamda grafika uchun kerakli o'quv qurollari yordamida ifodalang.
7. Grafika texnikasida ijod qiluvchi rassomlar xaqida so'zlab bering.
8. Grafika texnikasida ijod qiluvchi fashion illyustrator rassomlar ijodini kuzating va izlanma eskizlar yarating.

10-MAVZU: TASVIRLASHNING TURLI TEXNIKALARI – BOSMA TEXNIKASINI QO‘LLAB LIBOS ESKIZLARINI YARATISH.

Reja

1. Tasvirlashning bosma texnikalari haqida ma'lumot.

2. Tasvirlashning monotipiya texnikasi.

3. Tasvirlashning enkaustika texnikasi.

Monotipiya texnikasining tarixi deyarli 400 yilga borib taqaladi, garchi Xitoyda bosma bloklardan noyob bosma nashrlarni yaratishga birinchi urinishlar 11-asrga to'g'ri keladi. Ammo qadimgi Sharq ustalari bu texnikani ishlab chiqmaganlar va ularning avlodlari tezda unga qiziqishni yo'qotdilar.

Tarixchilar kech Uyg'onish davrining ikki rassomini monotipiya ixtirochilari deb bilishadi: Gollandiyalik Antoon Sallaert va italiyalik Jovanni Kastilione. Ikkala usta ham bir-biridan mustaqil ravishda deyarli bir vaqtning o'zida ikki xil turdagi monotipni ishlab chiqdilar.

Antonis Sallert 1640-yillarning boshlarida birinchi bo'lib toza metall plastinada bo'yoqlar bilan bo'yash, keyin esa tasvirlarni qog'ozga chop etish faoliyatini boshlaydi. Bu texnikada unga yoqqan jihati ishlaganda chizmaga osongina tuzatishlar kiritish mumkinligi edi.

Jovanni Kastilione 1640-yillarning o'rtalarida yana bir texnikani ixtiro qildi. Tovoqni siyoh bilan bo'yab, to'liq quritib qo'yardi. Shundan so'ng rassom o'tkir asbobdan foydalanib, qora fonda tasvirni o'yib, qog'ozga iz qoldirdi. Italiyaliklarning asarlari mayda detallarni sinchkovlik bilan chizish va soyaning ko'pligi bilan ajralib turadi.

Ammo ko'pchilik rassomlarning fikriga ko'ra, monotipiyaning bitta jiddiy kamchiligi bor edi. Nashrni faqat bitta nusxada olish mumkin edi. Shu sababli, uzoq vaqt davomida monotipiya qo'llanilishi ommaviy ishlab chiqarilgan bosib chiqarish texnikasidan sezilarli darajada past edi.

18-asr oxirida ingliz rassomi Uilyam Bleyk Sallert uslubini yaxshilashga harakat qildi. U bardoshli lak bilan metall plastinkaga dizaynni qo'lladi, so'ngra uni kislota bilan ishladi, bu esa himoyalangan joylarni yo'q qildi. Shunday qilib, sinkografiya, ya'ni ko'tarilgan etching turi ixtiro qilingan.

Monotipiya ("bitta bosma" ma'nosini anglatadi.) – bosma grafikasi

texnikasi bo'lib, uni 17-asrda italiyalik rassom Jovanni Kastilione ixtiro qilgan. Bu usulning mohiyati shundaki, bo'yoq silliq yuzaga surtiladi, so'ng tasvir qog'ozga bosib chiqariladi. Hosil bo'lgan bosma har doim yagona va takrorlanmas ko'rinishga ega bo'ladi. Shuningdek monotipiya – bu usulida bo'yoq shisha, plastina yoki boshqa silliq yuzaga tushirish ham mumkin, so'ng qog'oz yoki matoga bosib chiqariladi. Natijada noyob va takrorlanmas teksturalar hosil bo'ladi. (10.1-10.2-rasm.)

Libos dizaynida bu usul mato sathida betakror naqsh va gradient effektlarni yaratishda qo'llanadi. Monotipiya shu jihatdan yaxshi-ki, bu jonli, tezkor va yengil texnika bo'lib, unda har doim tasodifga o'rin bor. Bu texnikada tasodiflarsiz iloj yo'q. Bo'yoq qog'ozga aynan qanday tushishini oldindan bilib bo'lmaydi, faqat yorug'lik, soyalar va asosiy detallarni belgilash mumkin. Ba'zi rassomlar monotipiya bosmasini keyingi ishlariga asos sifatida ishlatib, keyinchalik detallarni chizib qo'shadilar. Boshqalar esa uni yakuniy maqsad sifatida ko'radilar. Bu texnikada Dega, Pissarro, Bleyk, Shagal va boshqa ko'plab rassomlar ijod qilgan.

Tasvirlashning enkaustika texnikasi – issiq mum bo'yoqlari bilan ishlash texnikasi. Bu usul libos dizaynida dekorativ elementlar yoki eksperimental tekstura yaratishda ishlatilishi mumkin. Mumli bo'yoqlar matoga surtilib, qizdirish orqali qatlam hosil qilinadi, bu esa sirli va chiroyli effektlar beradi.

Libos dizaynida monotipiya va enkaustika usullari ijodiy va eksperimental yondashuvni talab qiladi: Ikkala usul ham libos dizayniga ijodiy yondashuv sifatida foydalaniladi va uni yanada o'ziga xos qiladi.

Monotipiya texnikasi qiziqarli tasvirlash texnikasi sifatida bugungi kunda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun e'tiborli vositaga aylandi. Bosib chiqarishning an'anaviy usulidan tashqari, ushbu texnikaning ko'plab muqobil navlari paydo bo'ldi:



Deotipiya. Bo'yalgan shaklga qog'oz varag'i, ustiga yupqa nusxa ko'chirish qog'ozi qo'yiladi. Keyin qalam yoki boshqa asbobdan foydalanib, chizma qog'ozga chiziladi. Bo'yoq qog'ozning pastki chetiga o'zgaruvchan intensivlikda (qo'llaniladigan bosimga qarab) yopishadi. Natijada bitta nusxada asl tasvir paydo bo'ladi.



10.1-10.2-rasm. Tasvirlashning monotiya usuli



10.3-10.4-rasm. Tasvirlashning enkaustika usuli



10.5-10.6-rasm. Tasvirlashning enkaustika usulida yaratilgan fashion illyustratsiya

Savol va topshiriqlar

1. Tasvirlashning bosma texnikasi xaqida soʻzlab bering.
2. Tasvirlashning monotipiya usulining oʻziga xosligi qanday?
3. Enkaustika texnikasining bajarilish ketma-ketligi aytib bering.
4. Monotipiya texnikasi asosida yaratilgan libos eskizlarini A3 oʻlchamda tasvirlang.
5. Enkaustika texnikasi asosida yaratilgan libos eskizlarni A3 oʻlchamda tasvirlang.
6. Enkaustika, monotipiya texnikasida ijod qiluvchi fashion illyustrator rassomlar xaqida soʻzlab bering.
7. Enkaustika, monotipiya texnikasida ijod qiluvchi fashion illyustrator rassomlar ijodini kuzating va izlanma eskizlar yarating.

11-MAVZU: TASVIRLASHNING TURLI TEXNIKALARI – BOSMA VA KOLLAJ TEXNIKASINI QO‘LLAB LIBOS ESKIZLARINI YARATISH.

Reja

- 1. Kollaj texnikasi xaqida asosiy tushunchalar.*
- 2. Kollaj texnikasi asosida yaratilgan fashion illyustratsiyalarning o‘ziga xosligi.*
- 3. Kollaj texnikasining moda illyustratsiyasidagi ba’zi xususiyatlari.*

Kollaj texnikasi (fransuzcha “kollaj” – yelimlash so‘zidan olingan) — bu turli xil materiallar va tasvirlarni birlashtirish orqali yangi bir kompozitsiya yaratish san'ati. (11.1-rasm) Kollajda asosan gazeta, jurnal, foto, rasm yoki turli xil ob'ektlar (masalan, mato, qaychi bilan kesilgan shakllar, harflar va boshqalar) ishlatiladi. Bu materiallar bir-biriga yopishtiriladi yoki birlashtiriladi, natijada yangi badiiy asar yoki kompozisiyahosil bo‘ladi.

Kollajning asosiy xususiyati — bu turli xil elementlarni birlashtirish orqali yangi, original va ba’zida absurt yoki tasavvurga sig‘maydigan obrazlar yaratish imkoniyatidir. Kollaj texnikasi, ayniqsa, modern san’atda keng qo‘llaniladi va san’atkorlarga ijodiy erkinlik beradi. U badiiy ifodaning turli usullaridan biridir va turli g‘oyalarni yoki hissiyotlarni ko‘rsatib beradi.

Tasvirlashning kollaj texnikasi grafika, dizayn va hatto arxitektura kabi sohalarida ham qo‘llaniladi. Bu texnika ko‘pincha ijtimoiy yoki siyosiy masalalarni aks ettiruvchi asarlarda uchraydi.

Shuningdek kollaj tasviriy san’atda, rangtasvir yoki grafikadagi asarning turli materiallar hamda shakllar yordamida ixtiyoriy holda yopishtirilganda hosil bo‘ladigan rang va fakturaning mutanosibligidir. Kollaj texnikasida sketchlar tayyorlashda ijodkor yaratgan qoralama eskizlarga mos mavzu tanlab ularni shunga mos gazlama qirqimlari, moda jurnallaridagi qiyofa (luk) va lukbuklarni yaxlit qohozga joylashtirishni ko‘zda tutadi.

Kollaj texnikasi fashion illyustratsiyasida o‘ziga xos o‘rin tutadi, chunki bu texnika moda va dizayn sohalarida ijodiy yondashuvni kengaytiradi va original, innovatsion vizual tasvirlar yaratishga yordam

beradi. Fashion illyustratsiyasida kollaj usuli ko'pincha turli xil materiallar, to'qimalar, matnlar, tasvirlar va ranglarning kombinatsiyasi orqali modaning estetikasi va g'oyalarini ifodalashda qo'llaniladi.

Kollaj texnikasining moda illyustratsiyasidagi ba'zi xususiyatlari:

1. **Materiallarning turlicha kombinatsiyasi:** Kollajda foto, mato parchalari, gazeta yoki jurnallardan olingan tasvirlar birlashtiriladi. Bu usul yordamida kompozisiya hosil bo'ladi.

2. **Eksperimentallik va ijodiy erkinlik:** Kollaj orqali moda illyustratorlari har xil usullarni sinab ko'rishi mumkin, shu bilan birga modern va klassik dizayn elementlarini birlashtirish imkonini beradi. Bu yangi estetik va badiiy yechim yaratishga imkon beradi.

3. **Geometrik va abstrakt shakllar:** Kollajda ko'pincha geometrik shakllar, kesmalar, va tekisliklar ishlatiladi, bu esa moda illyustratsiyalarini qiziqarli va zamonaviy qiladi. Ushbu usul vizual tafovut yaratib, moda detallari va formalarini kuchaytiradi.

4. **Kreativ tafakkur va mashhur modellar:** Kollajda modellar, kiyim-kechaklar, aksessuarlar va makijajning kombinatsiyasi orqali nafaqat modaning tashqi ko'rinishi, balki uning ichki va hissiy tomoni ham tasvirlanadi. Shu bilan birga, bu texnika odatiy illyustratsiyalarga qaraganda ko'proq ma'no va kontentni hosil qiladi.

5. **Digital va an'anaviy usullar:** Moda kollajlari nafaqat qo'lda, balki qamqli vositalar yordamida ham yaratilishi mumkin. Grafik dizaynerlar va illyustratorlar kompyuter dasturlaridan foydalanib kollaj yaratadilar, bu esa an'anaviy texnikaga yangi imkoniyatlar qo'shadi.

Shuningdek kollaj texnikasidan fashion illyustratorlar ko'plab moda jurnallari, reklama materiallarida yaratishda foydalanishi mumkin.

Kollaj - bu yangi va ifodali san'at asarini yaratish uchun turli xil materiallarni, masalan, qog'oz, mato, fotosuratlar yoki topilgan narsalarni birga birlashtirishni o'z ichiga olgan ijodiy uslub. Kollaj turli madaniyatlar, davrlar va badiiy harakatlarni qamrab olgan uzoq va boy tarixga ega.

Kollajning kelib chiqishi. "Kollaj" so'zi frantsuzcha "koller" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "yopishtirish" degan ma'noni anglatadi. Kollaj yangi ixtiro emas, chunki odamlar asrlar davomida kollajning turli shakllaridan foydalanganlar, masalan, diniy piktogrammalarda, xalq an'analarida, choyshablarda yoki albomlarda. Biroq, zamonaviy san'at turi

sifatida kollaj XX - asrning boshlarida, Pablo Pikasso, Jorj Braque va Xuan Gris kabi rassomlar o'z rasmlariga gazeta parchalari, notalar yoki yorliqlar kabi turli xil materiallarni kiritish bilan tajriba o'tkaza boshlaganlarida paydo bo'ldi. Ular ushbu texnikani "papier colle" yoki "yopishtirilgan qog'oz" deb atashgan va undan voqelik tushunchalariga qarshi yangi kompozitsiyalarni yaratishda foydalanganlar.

Kollajning boshqa badiiy harakatlarga ta'siri. Kollaj tez orada dadaizm, syurrealizm, futurizm, konstruktivizm va kubizm kabi avangard san'at oqimlari orasida mashhur va ta'sirchan uslubga aylandi. Bu harakatlar kollajdan o'zlarining siyosiy, ijtimoiy va estetik qarashlarini ifodalash, shuningdek, mavhumlik, yonma-yon joylashtirish va parchalanish imkoniyatlarini o'rganish uchun foydalangan.

Zamonaviy davrda kollajning evolyutsiyasi. Kollaj rivojlanishda davom etdi va o'zgaruvchan vaqt va kontekstlarga moslashdi, chunki rassomlar yangi materiallar, texnikalar va media bilan tajriba o'tkazdilar. Kollaj ijtimoiy sharh, madaniy tanqid, shaxsiy ifoda va badiiy innovatsiyalar vositasiga aylandi. O'z ishlarida kollajdan foydalangan ba'zi zamonaviy rassomlar orasida Robert Rauschenberg, Romare Bearden, Richard Gamilton, Barbara Kruger, Devid Xokni va Kara Uoker bor. Kollaj, shuningdek, fotografiya, kino, musiqa va raqamli san'at kabi boshqa san'at turlariga ham ta'sir ko'rsatdi.





11.1-11.4-rasm. Kollaj texnikasi yordamida yaratilgan skeychbord namunalari



11.5-11.8-rasm. Kollaj texnikasini qo'llangan liboslarning fashion-illyustratsiyasi.



11.5-11.8-rasm. Kollaj texnikasini qo'llangan liboslarning fashion-illyustratsiyasi.

Savol va topshiriqlar

1. Kollaj texnikasi xaqida asosiy tushunchalar xaqida so'zlab bering.
2. Kollaj texnikasi asosida yaratilgan fashion illyustratsiyalarning o'ziga xosligi qanday?
3. Kollaj texnikasining moda illyustratsiyasidagi xususiyatlari xaqida so'zlab bering.
4. Enkaustika va kollaj texnikasini birlashtirgan holda fashion-eskizlar yarating.
5. Kollaj texnikasi asosida yaratilgan libos eskizlarni A3 o'lchamda ifodalang.
6. Kollaj texnikasida ijod qiluvchi fashion illyustrator rassomlar xaqida so'zlab bering.
7. Kollaj texnikasida texnikasida ijod qiluvchi fashion illyustrator rassomlar ijodini kuzating va izlanma eskizlar yarating.

12-MAVZU: MONOXROM, AXROMATIK RANGLARDAGI LIBOS ESKIZLARINI CHIZISH.

Reja

1. *Monoxrom ranglar uyg'unligi.*
2. *Liboslarda monoxrom ko'rinishni yaratish qoidalari.*
3. *Monoxrom ranglar uyg'unligining xususiyatlari.*
4. *Axromatik ranglar uyg'unligining xususiyatlari.*

Monoxrom atamasi yunoncha “monochronos” soʻzidan olingan boʻlib, “bir rang” degan maʼnoni anglatadi. Aniq bir tondagi rangning ocharishi yoki toʻqlashishi **monoxrom** ranglar deyiladi. Monoxrom ranglar uyg'unligi — bir rangning turli xil tonlari, soyalarini va nurlarini birlashtirib, yaratilgan vizual effektini ifodalaydi. Bu rang palitrasi bir asosiy rangga asoslanadi va bu rangning yengil yoki toʻliq qorongʻi tonlari, pastki yoki yuqori intensivlikdagi soyalaridan tashkil topadi. Monoxrom ranglar uyg'unligi odatda kompozitsiyaga soddalik va uyg'unlik bahsh etish uchun ishlatiladi, chunki ularni birlashtirishda ranglar orasidagi kontrastlar minimal darajada boʻladi.

Libos dizaynida monoxrom - bir xil rang sxemasidagi libos va aksessuarlarning bir obrazdagi kombinatsiyasi. Ushbu kostyumlar bir xil rangdagi kiyimlardan iborat boʻlishi shart emas. Yelka va bel libosi bir xil rangda ammo turli xil tushlarda (och-toʻqlikda) boʻlishi mumkin. (12.1-12.2-rasm).

Monoxrom ranglar uyg'unligining xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. **Soddalik va estetik xususiyat:** Monoxrom ranglar bir-biri bilan muvozanatli va uyg'un koʻrinadi. Monoxrom ranglarda koʻproq foydalanib liboslar yaratuvchi dizaynerlar liboslari odatda toza, viqorli va mukammal boʻlib chiqadi.

2. **Ton va soya farqlari:** Monoxrom tushdagi palitrada rangning tonlari (yengil, oʻrtacha va qorongʻi) va soyalari bir-biri bilan muvofiqlashadi. Masalan, bir rangning ochiq, oʻrtacha va toʻliq qorongʻi variantlari birgalikda ishlatiladi.

3. **Konsentratsiya va diqqatni jamlash:** Monoxrom ranglar ko‘pincha e‘tiborni bir nuqtaga, bir rangning o‘ziga qaratadi, bu esa ko‘rgazmalarda va badiiy asarlarda kuchli effekt yaratadi.

4. **Tartib va balans:** Monoxrom ranglar uyg‘unligi tartibni va balansni saqlashga yordam beradi. Ranglarning ortiqcha farqi bo‘lmagani uchun dizaynda vizual noaniqlik yoki chalkashliklar tug‘dirmaydi.

Monoxrom ranglar uyg‘unligidan foydalanish:

Moda dizaynida: monoxrom tUSDagi liboslar, masalan, bir rangdagi kostyumlar yoki liboslar juda zamonaviy va sof ko‘rinadi.

Interyer dizaynida: yengil va qorong‘i tonlar o‘rtasida farqlarni ishlatish orqali interyerni chiroyli va tinchlantiruvchi ta‘sir qilish mumkin.

San‘atda: asar yoki illyustratsiyalar yaratishda monoxrom ranglar orqali o‘ziga xos tasvirlar va kuchli ta‘sir yaratish mumkin.



12.1-12.2-rasm. Liboslarda monoxrom ranglardan foydalanish.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, tusda farq qiluvchi bir xil ranglardan tashkil topgan kombinatsiyalar monoxrom deb ataladi. Shunday qilib, monoxrom ansambldagi oddiy narsalar ham hashamatli kiyimga aylanadi.

Liboslarda monoxrom ko'rinishni yaratish qoidalari juda oson. Bunday liboslar:

- original, yaxlitlik, nafis;
- obrazdagi murakkablik va xotirjamlik, ayniqsa neytral ranglarda;
- siluetni vizual ravishda cho'zishga imkon berishi va shaklni ingichka qilib ko'rsatishi monoxrom obrazlarning yutuqlari hisoblanadi.

Qora va oq kombinatsiyalar o'ziga hos monoxrom obrazlaini hosil qila olishi bilan ajralib turadi. Liboslardagi eng mashhur monoxrom ranglar - umumiy qora va umumiy oq.


- Moviy, sariq, pushti, yashil, jigarrang ranglar bilan ham zamonaviy monoxrom kostyum obrazlarini shakllantirish mumkin.



12.3-rasm. Liboslarda monoxrom ranglardan foydalanish



12.4-12.6-rasm. Liboslarda monoxrom ranglardan foydalanish





12.7-12.10-rasm. Liboslarda monoxrom ranglardan foydalanib yaratilgan liboslar fashon illyustratsiyasi

Axromatik ranglar va ularning uyg'unligi

Axromatik ranglar – bu rang doirasida rang tusiga ega bo'lmagan, ya'ni faqat oq, qora va ularning orasidagi kulrang soyalar bilan cheklangan ranglar to'plamidir. Ular yorug'likning intensivligi va kontrast darajasiga asoslangan. (12.11- rasm.)



Axromatik ranglar uyg'unligi oddiy, zamonaviy va murakkab ko'rinish yaratadi. Ular dizaynda keng qo'llanilib, minimalistik va elegant effekt hosil qiladi. Quyida axromatik ranglarning uyg'unligi haqida asosiy tamoyillar keltirilgan:

1. Oq va qora kontrasti – eng kuchli vizual effektlardan biri bo'lib, grafika, interyer va modada keng qo'llanadi.

2. Kulrangning turli tuslari – yumshoq va iliq muhit yaratish uchun oq va qora orasidagi gradient yoki nozik o'tishlar ishlatiladi.

3. Yorug'lik va soya o'yinlari – axromatik ranglar yorug'lik va soyaning turli intensivlik darajalarini aks ettirib, uch o'lchamli effekt hosil qilishda muhim rol o'ynaydi.

Axromatik ranglar;

- Moda dizaynida – zamonaviy, klassik va minimalistik uslub yaratish uchun.
- Grafik dizaynda – kuchli vizual identifikatsiya va zamonaviy logotiplar uchun.
- Interyer dizaynida – zamonaviy va neytral muhit yaratish uchun.
- Fotografiya va san'atda – dramatik va hissiyotga boy tasvirlar yaratishda qo'llaniladi.

Axromatik ranglar uyg'unligi nafislik, minimalizm va universal dizayn tamoyillarini o'zida aks ettiradi. Oq, qora va kulrang soyalar o'zaro uyg'unlashganda, kuchli vizual ta'sir va estetik mukammallik hosil qiladi.







12.12-12.17-rasm. Axromatic ranglar uyg'unligidagi liboslar fashion illyustratsiyasi

Savol va topshiriqlar

1. Monoxrom ranglar uyg'unligini xususiyatlari qanday?
2. Liboslarda monoxrom ko'rinishi yaratish qoidalari qanday?
3. Liboslarda monoxrom ranglardan foydalanishning o'ziga xosligi qanday?
4. Liboslarda axromatik ranglardan foydalanishning o'ziga xosligi qanday?
5. Liboslarda axromatik ranglardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari xaqida so'zlab bering.
6. Enkaustika va kollaj texnikasini birlashtirgan holda fashion-eskizlar yarating.
7. Monoxrom ranglardan tashkil topgan libos eskizlarni A3 o'lchamda ifodalang.
8. Axromatik ranglardan tashkil topgan libos eskizlarni A3 o'lchamda ifodalang.
9. Axromatik va monoxrom ranglardan tashkil topgan eskizlarni kollaj texnikasi yordamida ifodalang.

13-MAVZU: KONTRAST RANGLAR UYG'UNLIGIDAGI LIBOS ESKIZLARINI CHIZISH.

Reja

1. *Kontrast ranglar uyg'unligi.*
2. *Liboslarda kontrast uyg'unlikni ifodalash qoniniyati.*
3. *Kontrast ranglar uyg'unligining xususiyatlari.*

Kontrast rang - ikkita rang o'rtasidagi aniq farqlar. Odamlarning sezgi organlari ma'lumotni taqqoslash orqali qayta ishlaydi: chiziq uzun ekanligini tushunish uchun uning yonidagisi qisqa bo'lishi kerak. Rang kontrasti ham shunday ishlaydi.

(13.1-13.7-rasm).

Kontrast ranglar uyg'unligi — turli xil ranglarning bir-biriga qarama-qarshi joylashib, kuchli vizual ta'sir yaratish usulidir. Kontrast ranglar bir-birini ajratib ko'rsatadi va bir-birini to'ldiradi, shu bilan birga ko'zni jalb qiladi. Ranglar orasidagi farqlar, masalan, yorqin va qorong'i, iliq va sovuq, iliq va salqin tonlar orasidagi farqlarni ifodalaydi. Bunday rang uyg'unligi kuchli, dinamik va energiyaga to'la ko'rinish yaratadi.


Kontrast ranglar uyg'unligining xususiyatlari:


- ***Yorqinlik va e'tibor:*** Kontrast ranglar bir-birini kuchli ravishda ajratib turadi. Bu ranglar o'rtasidagi farqlar e'tiborni jalb qilish uchun ishlatiladi va ko'pincha dizayn yoki san'at asarlarida markaziy element sifatida xizmat qiladi.

- ***Energiya va dinamika:*** Kontrast ranglar energiyani va dinamikani yaratadi. Bir rangning yorqinligi va to'liqligi boshqa rangning kam yorqinligi bilan taqqoslanganda, vizual kuchli ta'sir hosil qiladi.

- ***To'liq rang spektri:*** Kontrast ranglar bir-birining to'liq qarama-qarshi ranglari hisoblanadi. Masalan, qizil va yashil, sariq va ko'k ranglar bir-biriga qarama-qarshi ranglar sifatida ishlatiladi.

- ***Rangni ajratish va tasvirni kuchaytirish:*** Kontrast ranglar yordamida biror tasvirni yoki dizaynni ajratish va aniq ko'rsatish mumkin. Bu usul asar yoki elementlarni ajratib turadi va uni yanada yaqqol qilishga yordam beradi.





13.1-13.7-rasm. Libosarda kontrast uyg'unlik



13.8-13.11-rasm. Liboslarda kontrast ranglardan foydalanib yaratilgan liboslar fashon illyustratsiyasi

Kontrast vizual idrok etishning asosidir, usiz ob'ektlarni farqlash va ko'rish mumkin emas. Har qanday rang farqi kontrast bo'yicha zaif, o'rta va kuchli bo'linadi. Zaif kontrast nuansli kombinatsiyalarni yaratadi, kuchli kontrast kontrastni uyg'unlikni yaratadi. Kontrastning eng katta darajasi aylana bo'ylab bir-biridan uzoqda joylashgan va qarama-qarshi bo'lgan ranglar bilan hosil bo'ladi: qora-oq, to'q sariq-ko'k.

Rang bilan ishlashda bir vaqtning o'zida va ketma-ket kontrast kabi idrokning ajralmas qismini hisobga olish kerak. Ularning ta'siri biz kuzatgan kontrast qanchalik aniq bo'lishidan qat'iy nazar mavjud. Bir vaqtning o'zida kontrast nafaqat to'g'ridan-to'g'ri ko'rinadigan narsani, balki idrok o'zini to'ldiradigan narsani yoki bir vaqtning o'zida kontrastni ham o'z ichiga oladi. Rangni kuzatish tugagandan so'ng, uning ta'siri ketma-ket kontrast ko'rinishida davom etadi.

Qarama-qarshi ranglar aniq tonal farqlar va o'tkir o'tishlar bilan tavsiflanadi. Kontrast har bir rangning xususiyatlari va boshqalarga nisbatan ifodaliligini ta'kidlaydi.

Yengillikdagi kontrast inson idroki uchun asosiy o'ringa ega va shuning uchun eng kuchli hisoblanadi; kontrast libos yaratishda faol ta'sir zarur bo'lganda badiiy uslub sifatida ishlatiladi. Yengillikdagi farq har qanday diapazonda asosiy hisoblanadi va boshqa parametrlarga qaraganda ko'z tomonidan yaxshi qabul qilinadi. Yengillikdagi farqlarsiz gamma tekis va sun'iy ko'rinadi. Yengillikning kuchli kontrasti siluetni ochib beradi, uning konturlarini aniqroq qiladi, lekin relyef, tekstura va tafsilotlar unchalik ravshan emas. Yorug'lik kontrasti etarlicha kuchli bo'lsa, qora va oq rangga aylantirilganda tasvir o'zining ifodaliligini yo'qotmaydi. (11.8-11.12-rasm)



13.12-rasm. Liboslarda kontrast ranglardan foydalanib yaratilgan liboslar fashon illyustratsiyasi.

Savol va topshiriqlar

1. Kontrast ranglar uyg'unligi xaqida so'zlab bering.
2. O'xshash va kontrast ranglar uyg'unligini o'zaro farqi qanday?
3. Kontrast ranglar uyg'unligining xususiyatlari xaqida nimalarni bilasiz?
4. Kontrast ranglar gammasini hush ko'ruvchi insonlarning xarakteri qanday bo'ladi deb o'ylaysiz?
5. Rang xususiyatlarini o'rganish rassomlar fashion illyustratorlar uchub qanchalik muhim.
6. Kontrast ranglar uyg'unligi qo'llagan libos eskizlarni A3 o'lchamda suvbo'yoq (akvarel) yoki guash yordamida ifodalang.
7. Kontrast ranglardan tashkil topgan eskizlarni kollaj texnikasida yordamida ifodalang.

14-MAVZU: O'XSHASH RANGLAR UYG'UNLIGIDAGI LIBOS ESKIZLARINI CHIZISH.

Reja

1. *O'xshash ranglar uyg'unligi*
2. *Libos dizaynida mavjud ranglar qonuniyati*

Dizayner libos loyihalashga kirishar ekan, nafaqat liboslar silueti nyuansini yarata bilishi balki, rang ifodasini yaratishda ham nyuansning ahamiyatini bilishi lozim.

Nyuans qonuniyati ham loyihalash jarayonlaridagi kompozitsion vositalardan hisoblanadi. Libos kompozitsiyasini yaratishda nyuans nafaqat uning tashkil etuvchi chiziqlarda, balki kostyum umumiy siluetini yaratishda ham ahamiyatli hisoblanadi. Shu ma'noda nyuansdan kostyum kompozitsiyasini yaratish jarayonlarida undagi shakl va rangni yakuniy muvofiqlikka keltirish, hamda libos shakli yangicha ifodasini yaratishda foydalaniladi. (14.1-14.7-rasm).

Bu qonuniyatlar avvalo libosdagi chiziq va soyalarning rang va yorug'lik vositalari orqali tartibga keltirish, shu bilan bir qatorda fakturaning libos kompozitsiyasi, proporsiyasi va ritmik harakatlari bilan mutanosibligini rang-tus vositalari yordamida muvozanatga keltirish jarayonlarida ko'zga tashlanadi.

Shu jihatdan, dizayner bilishi lozim bo'lgan ranglar qonuniyatining quyidagi tamoyillarini tatbiq etish orqali erishiladi:

- ranglarning spektral doirasida yonma-yon turgan ranglar o'zaro aralashtirilganda to'ydirilgan rang-tuslari paydo bo'ladi;
- ranglar doirasida o'zaro uzoq bo'lgan ranglar aralashtirilganda to'ydirilganlik darajasida past ranglar paydo bo'ladi;
- to'ldiruvchi ranglar, rang doirasining qarama-qarshi tomonida bo'lgan ranglar bo'lib, bunday ranglar yonma-yon kelganda o'zaro yorqinlik paydo bo'ladi. Ular sariq va siyoh rang, olov rang va havo rang, qizil va yashil havo ranglardan iborat.
- qirmizi va sariq-yashil ranglarni teng miqdorda aralashtirilsa, ularda kul rangga xoslik va kam to'yinganlilik xususiyati yuzaga chiqadi.


Ranglarning inson hissiyotiga ko'rsatadigan ta'siri asosidagi ruhiy

fiziologik xususiyatlar quyidagicha belgilanadi:

Ranglar	Taassurot turlari			
	Ko'rinishi	Fiziologik	Assotsiativ	Ruhiy
<i>Qizil rang</i>	keskin,	issiqlik	qo'zg'atuvchi	qudratli;
<i>Olov - qizil</i>	yorqin,	ma'yuslik,	quyosh,	hayajonli,
<i>Olov rang</i>	yorqin,	mahzunlik,	oqshom,kuz,	g'azab;
<i>Sarg'ish- olov</i>	yorqin,	taranglik,	tong,oltin,	dinamik;
<i>Sariq</i>	yaltiroqlik,	to'liq,	yorug'lik,	baxt, hayot;
<i>Sarg'ish- yashil</i>	yaltiroqlik,	og'riq,	bahor,	quvonch;
<i>Yashil</i>	omonat,	xotirjamlik,	o'simlik,	umid;
<i>Havo rang</i>	rang	xotirjamlik,	cheksizlik,	tinchlik;
	noaniqlik	salqinlik,	gulsafsar,	xotirjamlik;
	shafaq,	iliqlik,		tantanavorlik;

Shu bilan bir qatorda libosdagi ranglar insonlar yosh xususiyatlaridagi farqni bildiradigan vositalardan biri hisoblanadi. Hamda liboslarda ranglarni to'g'ri qo'llash orqali dizaynerlar inson qomatidagi kamchiliklarni yashira olish imkoniyatini yaratadilar. Masalan, to'q tusdagi ranglar to'la qomatli insonlarni ozg'inroq ko'rinishlariga sabab bo'lsa, och tusdagi libos ranglari kichik jussali insonlarga qo'shimcha hajm berish imkoniyatini hosil qiladi.

Nuansli kombinatsiyalar nozik rang tuslari, umumiy rang ohangi va effekti, o'xshash xususiyatlar va yaxlitlik bilan ajralib turadi. Nyuansli uyg'unlik silliq o'tishlar, vazminlik va xotirjamlik hissi yaratadi. Nyuans yengil va to'yinmagan ranglarda sezilarli darajada ifodaga ega bo'ladi







14.1-14.7-rasm. Liboslarda o'xshash ranglardan foydalanish.





14.8-14.11-rasm. Liboslarda o'xshash ranglardan foydalanib yaratilgan liboslar fashon illyustratsiyasi

Savol va topshiriqlar

1. O'xshash ranglar uyg'unligi xaqida so'zlab bering.
2. Ranglarning taasurol turlari xaqida gapirib bering.
3. Libos dizaynida mavjud ranglar qonuniyatining tamoyillari nimalardan iborat?
5. Kontrast va o'xshash ranglarni bir biridan ajratib turuvchi farqi qanday?
6. O'xshash ranglar uyg'unligi qo'llagan libos eskizlarni A3 o'lchamda suvbo'yoq (akvarel) yoki guash yordamida ifodalang.
7. O'quv adabiyotlaridan o'xshash ranglar uyg'unligi xaqidagi bilimlaringizni mustaxkamlab eskizlar yarating.

15-MAVZU: O'XSHASH-KONTRAST RANGLAR UYG'UNLIGIDAGI LIBOS ESKIZLARINI CHIZISH.

Reja

1. Libos dizaynida o'xshash-kontrast rang uyg'unligi.
2. O'xshash-kontrast ranglar uyg'unligidagi libos eskizlarini chizishning o'ziga xosligi.
3. Libos dizaynida mavjud uch rangli tizim triadasi.

O'xshash kontrast ranglar uyg'unligi — ranglar spektrida bir-biriga yaqin bo'lgan, va ularga qarama-qarshi joylashgan ranglarni birlashtirish orqali hosil bo'ladi.

Shuningdek libos eskizlarida o'xshash kontrast ranglardan foydalanish mobaynida asosiy rangdan keyin joylashgan 2 -3 ta qo'shni rang bilan birga, asosiy rangning qarshisida joylashgan rangdan ham foydalanganda yuqorida ta'kidlangan kombinatsiya hosil qilinadi.

Masalan, rang doirasida sariq rang va undan keyin joylashgan olov ranggacha bo'lgan ranglar bilan birga sariq yoki olov rangning qarama qarshisida turgan siyoh rang yoki ko'k rangdan bir libos eskizida qo'llanilganda o'xshash kontrast ranglar asosidagi libos yaratiladi. (15.1-15.3-rasm). Bunga yana qizildan siyoh ranggacha bo'lgan ranglar bilan unga qarama qarshi joylashgan yashil rang qo'llanilganda ham o'xshash kontrast ranglardan yaratilgan libos eskizi shakllantiriladi.





15.1-15.3-rasm. Libosarlarda o'shash - kontrst ranglar uyg'unligi

Qora-qizil-oqning qarama-qarshi triadasi tarixdagi birinchi uch rangli tizimdir. Qadim zamonlardan beri butun dunyo madaniyatlarida triada marosim bo'yash, rasm, haykaltaroshlik va kostyumda mavjud. Qadimgi xalqlar tasavvuridagi xudolar bu ranglarda bo'yalgan. Bugungi kunda triada avvalgi tarixiy davrlardagi kabi dolzarbdir. Ko'pgina biznes nashrlarida bu ijtimoiy-siyosiy mazmundagi sahifalar uchun sevimli rang sxemasi.(15.4-rasm)



15.4-rasm. Libos dizaynida mavjud uch rangli tizim

Sovuq va issiq ranglarning kontrasti. Eng kontrastli juftlik - ko'k-yashil va qizil-to'q sariq. Qizil-to'q sariq yoki qizil qo'rg'oshin - eng issiq rang, ko'k-yashil yoki manganets oksidi - eng sovuq rang. Ranglar palitrasida bu issiqlik va sovuq qutblari. Rang fizikasi nuqtai nazaridan ular qo'shimcha rol o'ynaydi va fiziologiya nuqtai nazaridan ular inson ko'zini eng jozibali hisoblanadi.

Sovuq va issiq kontrast har doim boshqa rang kontrastlari orasida eng "kuchli" deb hisoblangan. O'rta asrlar rassomlari ilohiy tuyg'uni etkazishni xohlaganlarida unga murojaat qilishdi. Gotik saborlarining rangli vitrajleri ushbu kontrast tamoyillari asosida qurilgan. Osmonning yoritilishi va quyosh nurlarining tushish burchagi bilan doimiy ravishda o'zgarib turadigan yorug'likning harakatchanligi tufayli vitray oynalarning rangi kun

davomida doimiy ravishda farqlanadi. Va buning natijasida shishaning shaffof materiali qimmatbaho toshlarning yorqinligi kuchini oladi.

Har bir rang juda ko'p quyuqroq va engilroq soyalarni o'z ichiga oladi. Ko'pgina dizaynerlar faqat bitta rang soyalarida ishlashni afzal ko'radilar va shu bilan birga oddiygina yorqin echimlarga erishadilar. Davriy chop etishda yorug'lik va quyuq kontrastdan foydalanish faqat bosib chiqarish bazasi darajasi bilan cheklanishi mumkin.

Rangli dog'lar sohasidagi kontrast ikki yoki undan ortiq rangli dog'lar o'rtasidagi o'lchovli munosabatlarni tavsiflaydi.

Rangli tekisliklarning o'lchamlarini uyg'unlashtirish uchun yorug'lik qiymatlari nisbatiga teskari bo'lgan ekvivalentlardan foydalanish kerak. Proportionlar quyidagicha bo'lishi kerak: sariq: to'q sariq = 3:4 sariq: qizil = 3:6 sariq: binafsha = 3:9 sariq: ko'k = 3:8 qizil: yashil = 6:6 sariq: qizil: ko'k = 3: 6:8 apelsin: binafsha : yashil = 4:9:6

Ya'ni, asosiy ranglardan uyg'un rang kompozitsiyasini yaratish uchun siz 3 qism sariq, 6 qism qizil va 8 qism ko'k rang olishingiz kerak.

Boshqa barcha ranglar ham bir-biri bilan mutanosib munosabatda mos keladigan tarzda ifodalanishi mumkin. Rangli dog'lar joylarini o'zgartirish orqali kontrastni oshirishingiz mumkin. Bunday holda, siz har doim kontrast darajasini hisobga olishingiz kerak.

Ekspressiv kompozitsiyani yaratish. Agar rang kompozitsiyasida ranglar o'rtasidagi uyg'un fazoviy munosabatlar o'rniga bitta rang ustunlik qilsa, kompozitsiya ayniqsa ekspressiv faollikka ega bo'ladi.

Tanlangan munosabatlarning o'ziga xosligi maqsad bilan belgilanadi va dizaynerning badiiy qobiliyati va didiga bog'liq.



15.5-15.7-rasm. Liboslarda o'xshash - kontrast ranglar uyg'unligi asosida yaratilgan fashion-illyustratsiya namunalari

Savol va topshiriqlar

- 1.Libos dizaynida o'xshash-kontrast rang uyg'unligi xaqida so'zlab bering.
- 2.O'xshash-kontrast ranglar uyg'unligidagi libos eskizlarini chizishning o'ziga xosligi qanday?
- 3.Libos dizaynida mavjud uch rangli tizim triadasi qaysi ranglar uyg'unligidan iborat?
- 4.Liboslarda o'xshash - kontrast ranglar uyg'unligi asosida yaratilgan libos eskizlarini A 3 o'lchamda suvboyo'q yoki guash yordamida ifodalang.
- 5.Kontrast va o'xshash ranglarni bir biridan ajratib turuvchi farqi qanday?
- 6.O'xshash ranglar uyg'unligi qo'llagan libos eskizlarni A3 o'lchamda suvbo'yoq (akvarel) yoki guash yordamida ifodalang.
- 7.O'quv adabiyotlaridan o'xshash kontrast ranglar uyg'unligi xaqidagi bilimlaringizni mustaxkamlab eskizlar yarating.

GLOSSARIY

Ansambl - fransuzcha (farangcha) bu soʻz tarjimada – (toʻliq, tekis, uygʻun) turli qismlardan yoki boʻlaklardan yigʻilgan bir butun manosini bildiradi. Shuningdek kostyumning muayyan badiiy uslub birligiga ega boʻlgan qismlarning yigʻidisidir. Ansambl oʻzaro birlikni anglatadi. Ansambl qismlarining oʻzaro qatʼiyan boʻysunganligi sababli inson obrasini va davrni eng toʻliq ifoda etishdek maxsus xususiyatiga ega boʻladi.

Assoriment- kiyim –kechak assortimenti-bu iste'molchilar talabini qondirish uchun sanoat tomonidan ishlab chiqarilgan har xil turdagi va maqsadli mahsulotlar toʻplami.

Aksessuar-(Fr. Lotin tilidan Accessoire. Aksessuarlar - "qoʻshimcha") biror narsaga mos keladigan ixtiyoriy ob'ekt. Kostyumni toʻldiruvchi sifatida qabul qilish mumkin.

Eskiz (Fr. esquisse) - badiiy asar, loyiha, libos, inshoot, gʻoyasini aks ettiruvchi rasm, dastlabki eskiz

Dizayn- soʻzi italian soʻzi “disegno” loyihalash, chizish, fikr qilish maʼnolarini anglatadi. Dizayn bu-aqliy fikrlash va ijod qilishning uygʻunligidir.

Dizaynga turli hil nuqtayi nazarlari mavjud:

- 1) dizayn – bu buyumni funksionalligi va ratsional konstruktivligini qonuniy natijasi;
- 2) dizayn – bu sanʼat turi. Inson dizayn mahsulotini badiiy buyum sifatida tasavvur etadi;
- 3) dizayn - uygʻunlashtiriladigan soha. U yordamida insonga ijobiy estetik taʼsir etishi uchun sanoat buyumlarning xossalari oʻzaro moslashtiriladi;
- 4) dizayn – sanoatda ishlab chiqariladigan buyum sifatining maxsus aspekti.

Libos dizayni -bu kiyim-kechak va aksessuarlarda, estetika va tabiiy

go'zallikni qo'llash san'ati. Unga madaniyat va turli tendentsiyalar ta'sir ko'rsatadi.

Liboslar dizayneri – libos to'plamlari jumladan kiyim-kechak, ko'ylaklar, kostyumlar, shimlar va yubkalar, shuningdek, iste'molchilar uchun poyabzal va sumka kabi aksessuarlar yaratadi. U kiyim-kechak, aksessuarlar yoki zargarlik buyumlari dizayniga ixtisoslashgan sohalardan birida ishlashi mumkin.

Moda (frans. mode – me'yor, tarz, usul) paydo bo'lishi anchagina murakkab voqea bo'lib, jamiyat hayotidagi qator hayot omillariga bog'liq, insonning juda ko'p faoliyatiga o'tadi. Moda turmushning tashqi ko'rinishida, asosan kiyimda namoyon bo'ladigan biron didning biron ijtimoiy muhitda ozroq vaqt xukmron bo'lishidir. (V.Dal)⁸

Model - turi, shakli, matosi va boshqa sifatlariga ko'ra yangi namuna.

Fason - nomdosh guruhda shakli, bichimi va boshqa xususiyatlarga ega bo'lgan kiyim.

Furnitura- bu (ang.furniture)-ma'lum bir qattiq buyumni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan yordamchi qismlar: tugmalar, fermuarlar, tugmalar bularning barchasi tayyor mahsulotga tayyor ko'rinish beradi va uni iloji boricha qulay qiladi.

Kompozitsiya- (lotincha: compositio — tuzilish, birlashish, bog'lanish) — badiiy asarning mazmunan, xarakteri va maqsadi jihatidan bog'langan qismlarining joylashishi. Tasviriy san'atda—rassom (haykaltarosh va boshqa) g'oyasini aniq ifoda etish vositasi bo'lib, unda ijodkorning mahorati yorqin namoyon bo'ladi.

Kiyim kompozitsiyasi - kiyim shaklining barcha elementlarini, uning

⁸ Г.К.Хасанбаева,О.И.Кримова Кийим моделини ишлаш ва констукциясини тайёрлаш. 11 б.

mazmunini vositalar yordamida ifoda etadigan birlikni barpo etishdir.⁹

Kiyim-bu materiallarning odam tanasidagi qobiq sistemasi bo'lib, tanani iqlim ta'siridan saqlaydi va insonning o'ziga xos ba'zi xususiyatlarini namoyon qiladi

Kostyum-bu kiyim qismlarinig muayyan obrazli badiiy sistemasi va bu qismlarni insonning individual obrazini ifodalaydi. Shuningdek kostyumni bosh kiyim, poyabzal, soch turmagi, grim va boshqa qo'shimcha detallar tashkil qiladi.

Komplekt (lotinchadan tarjimada "to'liq" ma'nosini anglatadi) – bu belgilangan konkret vazifani bajarishga mo'ljallangan kiyim bilan birgalikda kostyumni tashkil etuvchi to'ldiruvchi-predmetlarning to'liq to'plami. Komplektda kiyim va predmetlar shaklining badiiy yechimi bitta uslubiy yechim bilan bog'langan bo'ladi.

Kolleksiya-(lot. yig'ilish, yig'ma, terma) - uslub, konstruksiyasi, shakli, materiallarning o'xshashligi asosida terilgan yoki ma'lum bir badiiy obrazni ifoda etishga xizmat qiladigan kiyim modellari termasi (yig'masi).

Tektonika - bu buyum shaklida material va konstruksiyani ishlatishning aks ettirilishidir.

To'plam - umumiy vazifani bajaruvchi bir necha buyumlar yig'indisi. Unda material bilan uslub birligi bo'lishi shart emas.

Garderob – bu bir qator hollarda zarur bo'lgan bir sidra kiyim komplektlari va kostyumni to'ldiruvchi boshqa qo'shimcha predmetlar, ya'ni bir kishining va butun oila a'zolari hamma kiyimlarining yig'indisi.

Garnitur- bu ma'lum vazifani bajarishga mo'ljallangan va umumiy uslubiy yechim, material va bezaklari orqali birlashgan buyumlarning to'liq

⁹ G.K.Xasanbayeva, M.Sh.Shomansurova. "Maxsus kompozitsiya" Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007 y. – 167 b.

to'plami. "Garnitur" badiiy tizimi doirasidagi libos modellarini loyihalashda dizayner oldida bir uslubiy yechimga ega bo'lgan kostyumni tashkil etuvchi bir necha buyumni bir xil yoki barcha modellar uchun umumiy bo'lgan bir necha xil konkret vazifaga ega bo'lgan materiallardan ishlab chiqish masalasi turadi. Garniturdagi buyumlar soni turlicha: 2ta, 3ta, 4 ta bo'lishi mumkin. Masalan, bosh kiyim va palto yoki kostyum; ko'ylak bilan jaket. Libos-kostyumni mukammalroq tugallash uchun "garnitur" sistemasiga mos keluvchi poyabzal, sumka, perchatkalar tanlash zarur bo'ladi. "Garnitur" sistemasi unchalik keng bo'lmasa ham sanoat ishlab chiqarilishda qo'llaniladi.

"Haute Couture" (farangcha talaffuzda "ot – kutyur" – yuqori darajadagi tikish, yoki yuqori san'at darajasidagi tikish ma'nosida) – hozirgi vaqtda "yuqori moda" ma'nosida ishlatilib, eng yuqori sinf darajasidagi kiyimlarni yaratish tushuniladi. Bunday sinfga yoki turkumga kiruvchi kiyimlar yagona nusxada bajariladi, bularga asosan qo'l me'natini ishlatiladi.

"Pret-a-porter" (farangcha talaffuzda "pret-a-porte" – tayyor ko'ylak industriyasi, tayyor ko'ylak ishlab chiqarish sanoati ma'nosida) - kiyim korxona va fabrikalarda tayyorlana boshlanishi natijasida XX asrda paydo bo'lgan tayyor kiyimlar ishlab chiqaruvchi sanoatiga tegishli bo'lgan kiyimlar sinfi. Bu turkumga mansub kiyimlar nusxalari soni, sifati va narxlari doirasida yana bir necha sinflarga bo'linadi.

Shakl (lot. «forma») — tashqi ko'rinish, chegara ma'nolarini anglatadi. Shuningdek u buyumning tashqi ko'rinishini va chegarasini ifodalaydigan geometrik mohiyat.

Uslub – qandaydir vaqt oralig'ida umumiy vosita va usullar bilan badiiy ifodalanishga aytiladi.

O'QUV QO'LLANMADA FOYDALANILGAN FASHION ILLYUSTRATSIYALAR MUALLIFLARI.

O'quv qo'llanmada K.Behzod Milliy rassomlik va dizayn instituti "Libos dizayni" kafedrasining quyidagi iqtidorli talabalari fashion illyustratsiyalaridan foydalanildi.

Muxtorova Shaxrizoda	(Fan o'qituvchisi Umarova Z.S.)
Teshayeva Munisa	(Fan o'qituvchisi Umarova Z.S.)
Xaitova Nozigul	(Fan o'qituvchisi Umarova Z.S.)
Nuriddinova Iroda	(Fan o'qituvchisi Umarova Z.S.)
Umarova Charos	(Fan o'qituvchisi Xudoyeva D.G'.)
Uralova Sevinch	(Fan o'qituvchisi Abdullayeva Z.S.)

**ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA
AXBOROT MANBAALARI
ASOSIY ADABIYOTLAR**

1. "Ataxanova F.Z. "Libosda kompozitsiya va rang", OO'Yu talabalari uchun darslik. Toshkent: Info Capital Group, 2018 y. – 384 b.
2. "Kamilova X. X., Isaxojayeva N. A, Fuzailova K.R. "Kostyum kreativ grafikasi", OO'Yu talabalari uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent : Fan va texnologiya, 2017. - 240 b.
3. G.K.Xasanbayeva, M.Sh.Shomansurova. "Maxsus kompozitsiya" Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007 y. – 167 b.
4. Fashion Design (Portfolio (Laurence King)): Sue Jenkyn Jones: 272 pages; Publisher: Laurence King Publishing; 3 edition (24 Mar. 2011).
5. Пармон Ф.М. "Композиция костюма", учеб. – М.: Легпробытиздат, 1997 г. – 318 с.
6. "Fashion Sketchbook", Bina Abling. Firechild Book, New York, 2012 y.
7. "Fashion Design. Drawing Course". Caroline Tatham, Julian Seaman, "Barron's Educational Series", 2003
8. Ермилова В.В., Ермилова Д.Ю. Моделирование и художественное оформление одежды. -М.: Academia, 2000.
9. A. Egamov. Kompozitsiya. -T.: "San'at" jurnali nashriyoti, 2005.

Qo'shimcha adabiyotlar

10. Xudoyberganov R.A.. "Rangshunoslik", O'quv qo'llanma. Toshkent: 2002 y.-180 b.
11. Nozilov D.A., Dmitrieva I.V., Xadjibaeva N.X. "Kompozitsiya asoslari", OO'Yu talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009 y. -78 b.
11. Бердник Т.О. "Дизайн костюма", учеб. пособие. Ростов-на-Дону. "Феникс", 2000 г.-190 с.
12. Рунге В.Ф., Сеньковский В.В. "Основы теории и методологии дизайна", – М.: МЗ – Пресс, 2001 г.-240 с.
13. Бердник Т.О. "Основы художественного проектирования одежды и эскизной графики", учеб. – М. Ростов «Феникс», 2001 г.-250 с.
14. Пармон Ф.М. "Композиция костюма", учеб. – М.: Легпробытиздат, 1997 г. – 318 с.

15. Петушкова Г.И. “Проектирование костюма”, учеб. – М.: Издательский центр «Академия», 2004 г. – 416 с.
16. Бердник Т.О., Неклюдова Т.П. “Дизайн костюма”, учеб. пособие. Ростовна-Дону. Феникс, 2000 г.-265 с.
17. “Il Figurino Di Moda”, Fernando Burgo. ISTITUTO di MODA BURGO, 2005 y.
18. IL Figurino Di Moda,Book from Instituti Marangoni-Milano,Part One.2005г.
19. Tonu Saha. BGMEA UNIVERSITY OF FASHION and TECHNOLOGY. Progect “ Tech Pact”.2015 г.
20. Бусыгина О.М. Стилизация фигуры человека (УМР). – Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2002.
21. “Figure Drawing for Fashion Design”, Elisabetta ‘Kuky’ Drudi, Tiziana Paci. The Pepin Press BV, 2005y.
22. Майк В. Лиин. “Современный дизайн. Пошаговое рук-во: техника рисования во всех видах дизайна”. учеб. пособие. – М. Легпромбытиздат, 2012 й.-255 с.

Интернет сайтлари

23. www.pinterest.com
23. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
24. www.sarafan.ru
25. www.textilegroup.ru
26. www.ocinka.ru
27. www.textile-press.ru

Qaydlar uchun

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI
MILLIV RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**

**Z.S.Umarova
F.S.Abdullayeva**

“KOMPOZITSIYA ASOSLARI VA RANGSHUNOSLIK”

FANIDAN

O‘QUV QO‘LLANMA

Muharrir: Abdullayeva Ra‘no

Terishga berildi: 09.12.2025

Bosishga ruxsat etildi: 15.12.2025

Bichimi: 60x84 ¹/₁₆. Ofset bosma.

Garnitura: Arial. Bosma taboq 8,25. Adadi: 10. № 27.

«MATRIX» nashriyoti.

Toshkent sh., Sayram 7-tor ko‘chasi, 52-uy.

«MATRIX» MChJ bosmaxonasida bosildi.

Toshkent sh., Sayram 7-tor ko‘chasi, 52-uy.

